MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR



TINIMSIZ MASHQ – G'ALABA ASOSI!

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN

WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 18-SENTABR
№38 (3204)

Qonunchilikda

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SOHASIGA OID QONUNLAR MUHOKAMA QILINDI



Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, davlat sirlarini muhofaza qilish, shuningdek harbiy xizmatchilarning huquq va ijtimoiy kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Xususan, “Safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik to‘g‘risida”gi qonun bilan tinchlik davrida safarbarlik tayyorgarligini tashkil etish, alohida davrda davlat va aholi ehtiyojlarini ta’minlash, umumiy yoki qisman safarbarlikni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni yagona huquqiy asosda tartibga solish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, safarbarlik jarayonida davlat organlari, iqtisodiyot tarmoqlari, tashkilotlar va fuqarolarning vazifa hamda majburiyatlarini aniq belgilash, ularning o‘zaro hamkorligini samarali tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qo‘mita a’zolari “Harbiy xizmatchilarning maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni ham atroflicha ko‘rib chiqdi.



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV

Qonun harbiy xizmatchilarning turli toifalari, harbiy yig‘inlarga jalb etilgan fuqarolar, harbiy xizmatdan rezervga bo‘shatilgan yoki iste’foga chiqarilgan fuqarolar, shuningdek qonunda belgilangan hollarda harbiy xizmatchilarning oila a’zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Eng muhimi, hujjat bilan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun belgilangan huquqlar, ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni ta’minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, majlisda “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasiga davlat sirlarini saqlash faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun ham muhokama qilindi.

Qonun bilan huquqiy bo‘shliq va noaniqliklarni bartaraf etish hamda davlat sirlarini muhofaza qilishga oid talablarni kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Muhokama yakunida Qo‘mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

Tahririyat

Inson qadri

VATANPARVARLIKNING UZILMAS TOMIRI – VATANINGDA QADR TOPMOQ

Men bu yil Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etish baxtiga muyassar bo‘ldim. Prezidentimizning bayram tabrik nutqidagi jumlalar, ayniqsa, meni quvontirdi.

“Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘ladi”, dedi davlat rahbari.

Albatta, shunday. Chunki Vataningda qadr topmoq – vatanparvarlikning uzilmas tomiri. Keyingi yillarda inson qadri masalasi davlat siyosatida eng ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Aslida, inson qadri haqida gap ketganda, biz nimani nazarda tutamiz, degan savolni berdim o‘zimga. Faqat uning moddiy farovonligi ta’minlanishinimi? Yaxshi uy-joy, munosib ish haqiga ega bo‘lishi, sifatli tibbiy xizmat, zamonaviy maktab va qulay yo‘llardan foydalanishinimi? Yo‘q, bu jumlalarga sig‘dirolmadim insoniy qadrni. Demak, inson qadri bu sanab o‘tganlarimdan ham kengroq tushuncha ekan.

Kishi qachon o‘z yurtida qadr topganini his qiladi, deb endi savolni boshqacharoq qo‘ydim o‘zimga. So‘ng javoblarni izlashga urindim: uning huquqi himoya qilingandami? Farzandiga sifatli ta’lim olish imkoniyatlari berilgandami? Yoki oilasiga munosib tibbiy xizmat ko‘rsatilgandami? Ehtimol, uning mehnati adolatli baholangandadir? Yo bo‘lmasa, shunchaki, uy-joy, ish, ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya masalalarida davlat xizmatidan foydalanganda uning shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lingandami?

Ha, bularning hammasida ham inson o‘z qadrini topadi. Nazarimda, inson qadri – uning shunchaki yashashi emas, balki munosib yashashida aks etadi. Bunda aniq himoyaga ega bo‘lish va o‘z huquqini himoya qilingan deb his etganda qadrini ko‘radi.

Bilasizmi, mustaqillik mohiyatini anglash – vatanparvarlik bilan bog‘liq tushuncha. Albatta, yurtni sevish, ardoqlash, uning taraqqiyotini o‘zining kamol topishi bilan uyg‘un ko‘rish – fuqarolik burchi sanaladi. Lekin vatanparvarlik poydevorini mustahkamlovchi yana bir muhim jihati borki, bu o‘sha fuqaroning yurtda qadr topishi.

Demak, **inson qadri va vatanparvarlik bir-biridan ajralmas tushunchalardir**. Prezidentimizning yuqorida keltirilgan fikrini shu nuqtayi nazardan qabul qildim. U shunchaki siyosiy shior emas, balki Vatan mustaqilligining va undagi inson qadrining mohiyatiga berilgan falsafiy baho edi.

Davlat rahbarining bu yilgi nutqida mustaqillikning ahamiyatini mavhum tushunchalar bilan cheklamadi: “paxta qulligi”, majburiy mehnat va bolalar mehnati, konvertatsiya cheklovi, doimiy ro‘yxatda turish kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berilgani misollarda keltirildi.

Bilasizmi, bir vaqtlar “propiska” balosi tufayli Toshkentda ishda qololmaganman. Albatta, men singari yana ko‘pchilik shu muammoga duch kelgan. Alamlisi, o‘z Vatanimda yashardim va shu Vatan fuqarosi bo‘la turib, uning xohlagan hududida yashash huquqim yo‘q edi! Xo‘sh, qadrim toptalganmidi? Albatta, shunday. Poytaxtda doimiy yashash ro‘yxatida turish bilan bog‘liq mana shu cheklovning olib tashlanishi – mening qadrimni yuksaltirmadimi? Yuksaltirdi.

Yana bir gap. O‘quvchi va talaba farzandlarim ta’lim olish jarayonida paxta terish uchun safarbar etilardi. Qolaversa, o‘zim ham bu ishga jalb etilardim. Endi majburiy mehnatdan ozod bo‘ldik. Xo‘sh, mening ham, farzandimning ham Vatandagi qadri ko‘tarilmadimi? Albatta, ko‘tarildi.

INSON QADRI – YANGI TUSHUNCHA EMAS

Bu fikrni tariximizdan uzib qarab bo‘lmaydi. Mayli, ko‘p ham uzoqqa bormay, ikki buyuk ajdodlarimiz g‘oyasini esga olaylik.

Alisher Navoiy asarlarida insonning ulug‘ligi uning mansabi, boyligi yoki nasabida emas, avvalo, **odamiyligida** namoyon bo‘lish g‘oyasi ilgari suriladi. Qolaversa, bizda milliy qadriyat sanalmish jamoaviylik hissiy – inson o‘z qadrini jamoadan, ya’ni eldan tashqarida

topolmasligini anglatadi. Demak, odamiylik – vatanparvarlik – elparvarlik mana shu yerda uyg‘unlashadi. Navoiy hazratlari “Odamiy ersang, demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” degan misralarida inson tushunchasi juda yuksak ma’naviy mezon bilan o‘lchanadi.

Zero Navoiy uchun odam bo‘lish – faqat dunyoga kelib yashash emas. Odam bo‘lish – boshqalarning dardini his etish, xalq g‘amiga befarq bo‘lmaslik, yaxshilik qilish, adolatni qaror toptirishda namoyon bo‘ladi.

Amir Temur davlatchilik tafakkurida esa bu g‘oya boshqa bir qirrada – **adolat va bunyodkorlik** orqali namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz ham o‘z nutqida sohibqiron Amir Temur barpo etgan davlatni “adolat va bunyodkorlik timsoli” sifatida tilga olgani bejiz emas. Boisi inson qadrini faqat shaxsiy axloq bilan ta’minlab bo‘lmaydi. Insonning qadri davlat boshqaruvi, qonun, adolat, ta’lim, tibbiyot, mehnat va ijtimoiy himoya tizimida ham o‘zini ko‘rsatishi kerak.

Navoiy insonning qalbiga murojaat qilgan, Amir Temur davlatchilik tafakkurida esa inson va jamiyat hayoti **adolat, tartib va bunyodkorlik** bilan bog‘langan.

Biri **“qanday inson bo‘lish kerak?”** degan savolga javob izlagan bo‘lsa, ikkinchisi **“insonlar hayoti qanday adolatli tartib asosida tashkil etilishi kerak?”** degan savolni davlatchilik darajasiga olib chiqqan.

Shu ma’noda bugungi “inson qadri” g‘oyasida biz ana shu ikki an’ananing – **odamiylik va adolatning** zamonaviy uyg‘unligini ko‘ramiz. Aslida, inson qadri o‘lchovlarining milliy asoslari haqida so‘zlamoqchi bo‘lsak, “Avesto”dan boshlab, butun buyuk ajdodlarimiz qarashlari tahlilining o‘zi bir kitobga sig‘mas, ehtimol.

Bugun esa inson qadri – huquq, erkinlik, munosib turmush, ta’lim, tibbiyot, mehnat, ijtimoiy himoya va imkoniyatlarni ta’minlash bilan bog‘lanmoqda.

G‘OYADAN HAYOTIY NATIJAGA: RAQAMLARNING JOYLARDAGI IFODASI

Bu kabi mulohazalarimizni, quvonchlarimizni ulashish, markazida inson qadri qo‘yilgan siyosatimizni aholi bilan bo‘lishish uchun Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining “Ma’rifat karvoni” bilan hududlarga yo‘l oldik. Shaxsan men vodiy viloyatlarida bo‘ldim va ko‘nglimdagilarni ular bilan o‘rtoqlashdim. Ushbu viloyatlarda ham qadr masalasining o‘lchovlari amalda namoyon bo‘lmoqda.

Bugun biz, targ‘ibotchilar ham Prezident nutqida ilgari surilgan ana shu g‘oyalarni joylarda odamlarga yetkazish, uning mazmun-mohiyatini tushuntirish vazifasi bilan taraqqiyotga hissa qo‘shmoqdamiz.

Andijonda, Farg‘onada va Namangandagi uchrashuvlar, davra suhbatlari va targ‘ibot tadbirlarida bir fikr alohida ta’kidlandi: **inson qadri – faqat baland minbarlarda aytiladigan ibora emas. U maktabda, shifoxonada, mahallada, ish joyida, qurilishda, oddiy insonning kundalik hayotida namoyon bo‘lsa, ana shunda haqiqiy qadrga aylanadi. Buni ko‘rish uchun esa shahar-u qishloqlarning o‘zgarayotgan bugungi qiyofasiga nazar tashlashning o‘zi kifoya qiladi.**

Masalan, Andijon viloyati maktabgacha va maktab ta’limi tizimining rasmiy ma’lumotlariga qarasak, 2016-yilda viloyatda bor-yo‘g‘i **454 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti** bo‘lgan, 3-7 yoshli bolalarning qamrovi esa atigi **24,6 foiz**ni tashkil etgan. Bugungi ko‘rsatkich esa mutlaqo boshqacha: viloyatda **4 288 ta** maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘n yil davomida 102 ta davlat va 3 727 ta nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti ishga tushirilib, **143 mingta yangi o‘rin** yaratildi. Natijada maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 90 foizga yetkazildi. Raqamlarga e’tibor bering:

2016-yil – 24,6 foiz.
2026-yil esa – 90 foiz.

Bu shunchaki statistik o‘sish emas. Bu – o‘n yil oldin aynan maktabgacha ta’lim muassasasiga borish imkoniyati cheklangan bolaning bugun ta’lim-tarbiya tizimiga kirib kelish imkoniyati kengayganini anglatadi. Bu – ota-onaning, ayniqsa, ayollarning mehnat qilishi, kasb bilan shug‘ullanishi, o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyati ham oshganidan dalolat beradi. Inson qadri ba’zan katta shiorlarda emas, mana shu oddiy o‘zgarishlarda aks etadi. Ha, aynan shunday.

Aslida inson qadri – raqamdan ulkan, bu raqamlar bor-yo‘g‘i uni ko‘rsatib turuvchi vosita xolos. Zero statistika insonning ko‘zidagi quvonchni, ona qalbidagi xotirjamlikni, bemorning sog‘ayib ketishini yoki yoshning o‘z kelajagiga ishonch bilan qarashini to‘liq ifodalay olmaydi. Biroq g‘oya – yo‘nalishni belgilaydi, raqam – natijani ko‘rsatadi, insonning hayotiy darajasi esa uning haqiqiy mazmunini ochadi. Zotan, bino inson uchun qurilmasa – u shunchaki qurilma. Maktab bolaning kelajagini ochmasa – u shunchaki bino. Shifoxona bemor dardiga darmon bo‘lmasa – u shunchaki muassasa. Islohot inson hayotini yaxshilamasa – u shunchaki statistik raqam.

Fuqarolik – inson qadrining huquqiy mezoni.

Inson qadri haqida so‘z borganda yana bir masalaga alohida to‘xtalishni zarur deb o‘ylayman. Bu – fuqarolik. Zero fuqarolik shunchaki “pasport” olish emas. U insonning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasini, uning davlat himoyasi va huquqiy maydonida to‘laqonli subyekt sifatida tan olinishini anglatadi.

Ayniqsa, vodiyliklar, respublikamiz boshqa chegara hududlarida yashab, qo‘shni davlatda yaqin qarindoshlarga ega bo‘lganlar bu masalaning hayotiy ahamiyatini yaxshi tushunadi. Qo‘shni davlatlardan kelib, O‘zbekistonda oila qurgan, farzandlarini shu yerda voyaga yetkazgan, yillar davomida shu yurtda yashagan, ammo turli huquqiy sabablar bilan fuqarolik maqomini ololmagan insonlar taqdiri – inson qadri masalasining eng nozik nuqtalaridan biri. Bir vaqtlar mamlakatimizda oila qurgan, yillar mobaynida yashab kelib, fuqaroligi bo‘lmagani bois, farzandlarini o‘qishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan va yordam so‘ragan onalarni eslayman. O‘shanda hatto vazirlik darajasida ham hal qilolmagan edik bu masalani. Yo‘q, u yerdagilar buni xohlaganidan emas, balki shu ayolga fuqarolik berishning huquqiy asoslari bo‘lmaganidan amalga oshmagan bu ish. Endi yana bir raqamga e’tiboringizni tortmoqchiman: rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1992–2016-yillar davomida O‘zbekiston fuqaroligiga jami 482 nafar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs qabul qilingan bo‘lsa, 2016-yil dekabridan 2023-yil yakuniga qadar esa bu ko‘rsatkich 23 668 nafarni tashkil etgan. Bu – mana shuncha insonning mening yonimga yig‘lab kelgan ayol singari muammolari bo‘lgan, degani. Bu – xuddi shuncha insonning muammolari o‘z-o‘zidan hal etildi degani!

Vodiyning uch viloyati kesimidagi raqamlar ortida ham shunday taqdirlar yotadi. Ular uchun “O‘zbekiston – mening Vatanim” degan tushuncha endi nafaqat hissiy, balki huquqiy mazmunga ham ega bo‘lgan. Vatanparvarlik o‘z ildizi bilan borib tutashgan.

Aytgancha, shu o‘rinda maqola boshidagi fikrga yana qaytsam: **“Vataningda qadr topmoq – vatanparvarlikning uzilmas tomiri bo‘lgay”**. Nega? Chunki inson o‘z Vatani bilan taqdirini bog‘laydi. Uning mehnati, uyi, xotiralari, ota-onasi, farzandlari – barchasi Vatan tushunchasi bilan uyg‘unlashadi. Shuning uchun ham kishi o‘z yurtida qadr topgan sari unga daxldorlik hissi yana ham kuchayadi.

Shahlo AHROROVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bosh ilmiy xodimi,
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi



Armiya sporti

MILLIY KURASH —

Asrlar davomida turkiy xalqlarning madaniyati, falsafasi hamda milliy qadriyatlarini o‘zida jamlagan kurash bugungi kunda jahon arenalarida o‘zbek kurashi nomi bilan o‘tkazilib kelinishi e’tiborga molik!











Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV

Negaki, uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan kurash 1990-yillarda O‘zbekiston nomidan xalqaro standartlarga moslashtirilib, professional sport turi darajasiga ko‘tarildi. Shuning uchun bugungi kunga kelib, manbaalarda kurashning Vatani O‘zbekiston deya qayd etilishi mantiqan to‘g‘ri ekanidan dalolatdir. Qisqa qilib aytganda, kurash dunyo tan olgan, o‘z brendi va qoidalariga ega bo‘lgan kam sonli global milliy sport turlari qatoridan joy egallagani bilan muxlislar qalbiga muxrlanmoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, kurashning professional sport turi darajasiga ko‘tarilish zamirida muhim mexanizmlarning ishga tushirilishi uning nufuzini yanada oshirib boryapti. 14 marta jahon chempionati tashkillashtirilib, o‘nga yaqin davlat bunday nufuzli musobaqaga mezbonlik qilishi, dunyoning 150 ka yaqin milliy federatsiyasi Xalqaro kurash assotsiatsiyasi *(IKA)* tarkibiga kirishi, Osiyo o‘yinlari, Xalqaro harbiy sport kengashi *(CISM)* musobaqalari dasturidan joy olishi o‘zbek kurashining jozibasini yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Sanab o‘tilganlardan tashqari turli toifadagi xalqaro musobaqalarning muntazam o‘tkazilib turilishi kurashga bo‘lgan e’tiborni yangi-yangi bosqichga olib chiqmoqda. Poytaxtimizdagi “Olimpiya shaharchasi” sport yakkakurashlari majmuasi joriy yilning 10-15-sentabr kunlari bo‘lib o‘tgan harbiylar o‘rtasidagi I jahon chorlovi bellashuvlari ham buning yaqqol misolidir.

Xalqaro harbiy sport kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi, mamlakat kurash federatsiyasi hamkorligida tashkillashtirilgan debyut chellenj turnirida dunyoning 20 ga yaqin davlatidan tashrif buyurgan 120 dan ortiq polvon sovrinli o‘rinlar uchun gilamga chiqdi. “Olimpiya shaharchasi” sport yakkakurashlari majmuasida ishtirokchilarning xatti-harakatini baholovchi “Halol”, “Yonbosh”, “Chala”, “Tanbeh” kabi o‘zbekona so‘zlar yangradi. Poytaxtimizda o‘z yurti sharafini munosib himoya qilgan harbiy sportchilar aynan mana shu so‘zlar jarangi ostida bahs olib bordi.

Milliy sportimiz kurashni yanada ommalashtirish, xorijiy harbiy sportchilar bilan tajriba almashish hamda kurashning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan mazkur musobaqani o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad to‘liq uddalandi, deya ishonch bilan ayta olamiz. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham, Xalqaro harbiy sport kengashining 2026-yilgi

MILLIY AN’ANA











QK xizmatchisi Sherzod SHARIPOV

taqvim rejasida ham ana shu muhim jihatga e’tibor qaratilgandi. Bir so‘z bilan aytganda, musobaqaning tantanali yopilish marosimida Roberto Rekkia ta’kidlaganidek, CISMning shiori hisoblangan “Sport orqali do‘stlik” shiori O‘zbekiston miqyosida, o‘zbek milliy kurashi timsolida yana bir karra o‘z isbotini topdi.

Voqealar jarayonini kuzatar ekanmiz, kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish nimalardan iboratligini anglab yetgandek bo‘ldik. Xorijlik mehmonlarni kutib olish, matbuot anjumanlari, musobaqalar jarayoni, milliy qadriyatlarimizni namoyon etuvchi hunarmandlik durdonalari, o‘zbekona mehmondo‘stlik, “Olimpiya shaharchasi”da yaratilgan xalqaro standartlar muhiti – bularning barcha-barchasi takrorlanmas ko‘rinishga ega edi. Ayniqsa, musobaqa qatnashchilari va turnir tashkilotchilarni “Olimpiya shaharchasi”da joylashgan sport yakkakurashlari majmuasi lol qoldirganiga guvoh bo‘ldik. Inshootning bosh arenasi va O‘zbekiston dzyudo terma jamoasi shug‘ullanayotgan mashg‘ulotlar zali bilan yaqindan tanishtirilgan CISM bosh kotibi Roberto Rekkianing hayratomuz “Its superb” degan olqishi amalga oshirilgan ishlarning tashkilotchiligi uchun berilgan haqiqiy baho edi.

Xalqaro kurash assotsiatsiyasi *(IKA)* bosh kotibi Muhammadrizo Nosiri Najod, CISMning sport loyihalari bo‘yicha rahbari polkovnik Rizo Bageri ham nufuzli musobaqaning maqsad va vazifalari, ishtirokchilar tarkibi, bellashuvlar tartibi hamda turnirga tayyorgarlik jarayonlari haqida iliq fikrlarni bildirdi.

Aytish kerakki, I jahon chorlovi musobaqasida erkaklar va ayollar 13 ta vazn toifasida sovrinli o‘rinlar uchun kurash olib bordi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari terma jamoasi musobaqada 21 nafar sportchi bilan to‘liq tarkibda ishtirok etdi va natijalar ham shunga yarasha bo‘ldi. Erkaklar o‘rtasida barcha vazn toifasida g‘oliblik hamyurtlarimizga nasib etgan bo‘lsa, qizlar bellashuvlarida terma jamoamiz jamg‘armasi yana uchta oltin medal bilan to‘ldirildi. Turnirda sovrinli o‘rinlarni egallagan harbiy sportchilarimiz pul mukofotlari bilan taqdirlangani musobaqaning yuqori saviyada tashkillashtirilganidan dalolat beradi. Buning natijasida 1-o‘rin sohiblari lavozim maoshining 15 barobari miqdorida, 2-o‘rin 10 barobari miqdorida, 3-o‘rindan joy olganlar 8 barobari miqdoridagi sovrin jamg‘armasiga ega chiqishdi.

Erkaklar o‘rtasida barcha vazn toifasi g‘oliblari:

-60 kg: Kamoliddin Baxtiyorov *(O‘zbekiston)*
-66 kg: Dilshod Baratov *(O‘zbekiston)*
-73 kg: Zamaxshariy Bekmurodov *(O‘zbekiston)*
-81 kg: Ahror Ziyodullayev *(O‘zbekiston)*
-90 kg: Samandar Sadinov *(O‘zbekiston)*
-100 kg: Jahongir Mamatrahimov *(O‘zbekiston)*
-120 kg: Muhammadkarim Xurramov *(O‘zbekiston)*
+120 kg: Bekmurod Oltiboyev *(O‘zbekiston)*

Ayollar o‘rtasida barcha vazn toifasi g‘oliblari:


-52 kg: Sitora Elmurodova *(O‘zbekiston)*
-57 kg: Hilola Ortiqboyeva *(O‘zbekiston)*
-63 kg: Arleta Yagna Podolak *(Polsha)*
-70 kg: Muxlisa Turdiyeva *(O‘zbekiston)*
+70 kg: Tolqin Tursinaqinova *(Qozog‘iston)*

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Mardlik

BIR O‘Q, BIR NISHON:

O‘ZBEK MERGANLARI YANA ZAFAR QUCHDI



Yurt himoyachisi uchun shijoat va matonat, yuksak kasb mahorati hamda metin iroda har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishda eng muhim fazilat hisoblanadi.

Joriy yilning 3-10-sentabr kunlari Koreya Respublikasining Gyeonggi provinsiyasi Gvangju shahrida “III Xalqaro merganlar musobaqasi”da O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy merganlar jamoasi mardlik sifatlarini amalda namoyon etdi.

Dunyoning 8 ta davlatidan 28 ta mergan jamoasi qatnashgan nufuzli bahslarda raqobat g‘oyat keskin kechib, unda xorijiy davlatlarning jami 13 ta va mezbon davlat Qurolli Kuchlarining 15 ta jamoasi o‘zaro kuch sinashdi. Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi – 3 ta jamoa;
2. Birlashgan Arab Amirliklari – 2 ta jamoa;
3. Vetnam Sotsialistik Respublikasi – 3 ta jamoa;
4. Mo‘g‘uliston Respublikasi – 2 ta jamoa;
5. Turkiya Respublikasi – 1 ta jamoa;
6. Kambodja Qirolligi – 1 ta jamoa;
7. Qozog‘iston Respublikasi – 1 ta jamoa;
8. Koreya Respublikasi – 15 ta jamoa.

Kuzatuvchi davlatlar: Misr Arab Respublikasi va Turkiya *(jandarma – harbiy va huquqni muhofaza qilish qo‘mondonligi).*

Qizg‘in va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi merganlar jamoasi yuqori natija qayd etib, xorijiy davlatlar orasida faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi:

I o‘rin: O‘zbekiston – 678.4 ball
II o‘rin: Vetnam – 666.6 ball
III o‘rin: Turkiya – 471.1 ball

Joriy yilgi musobaqa o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, o‘ta murakkab va nostandart shartlarga boy bo‘ldi. Dasturda belgilangan 20 ta shartda asosiy e’tibor shahar, tog‘li va o‘rmon hududlarida maxsus taktik o‘q otish mashqlarini bajarishga, shuningdek merganlik quroli, avtomat va pistoletdan bir vaqtda mohirlik bilan nishonlarni yo‘q qilishga qaratildi. Eng muhimi, bu yil bajarilgan maxsus o‘q otish mashqlarining birortasi ham o‘tgan yilgi mashqlarni takrorlamadi. Qoidaga ko‘ra, mashq shartlari musobaqaning har bir bosqichi boshlanmagunga qadar sir saqlandi. Bu yilgi bellashuvlarda nishonlarning 40 foizini harakatlanuvchi va havoda



uchuvchi dron nishonlari tashkil etdi. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 20 foiz edi.

Musobaqa merganlarning o‘zini chinakam jang maydonidagidek xotirjam tuta bilishini, diqqatni jamlash va chidamliligini sinovdan o‘tkazdi. Kuchli stress ostida vaqt tanqisligi va qat’iy cheklovlar sharoitida vazifalarni kunduzi ham, tunda ham bajarish har bir harbiydan yuksak matonatni talab qildi.



MUSOBAQADA SINOVLAR KO‘LAMI KUN SAYIN KENGAYIB BORDI:

6-sentabr kuni 1 ta tungi mashqni o‘z ichiga olgan jami 5 ta kompleks mashq bajarildi. Barcha harakatlar tog‘, o‘rmon va binolarda noqulay sharoitlarda, 200–800 metr masofadagi nishonlarga qarshi amalga oshirildi.

7-sentabr kuni 1 tasi tunda bo‘lgan 4 ta majmuaviy mashq o‘rmon va binolarda, noqulay sharoitlarda, 200–500 metr masofadagi nishonlar bo‘yicha bajarildi.



8-sentabr kuni esa haqiqiy chidamlilik imtihoni o‘tkazildi: qatnashchilar 21 kilometr masofaga yugurib, harakatlanish yo‘nalishlarida o‘rmon, tog‘ va binolarda noqulay sharoitlarda 200–1000 metr masofadagi nishonlar bo‘yicha 12 ta turli majmuaviy mashqni ado etdi.

Bu kabi mashqlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular real jangovar vaziyatlarga imkon qadar yaqinlashtirilgan bo‘lib, merganlardan nostandart qarorlar qabul qilishni, notanish qurollarni tezkorlik bilan jangovar holatga keltirib nishonni yo‘q qilishni talab etdi. Va eng asosiysi, uzoq vaqt uxlamasdan, kuchli charchoq va psixofiziologik bosim ostida vazifalarni ado etish, harbiylarimizning yuksak salohiyatini ko‘rsatdi.

MAHORATLAR YANGI REKORDLARDA BO‘Y KO‘RSATDI

Vakillarimiz dron orqali barcha nishonlarni aniq topib, barcha nishonlarni mahorat bilan yo‘q qildi. Belgilangan 7 daqiqalik vaqt ichida bu harakat 6 daqiqa-yu 58 soniyada muvaffaqiyatli ado etildi.

Jang maydonida yaradorni evakuatsiya qilish va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish mashqi bo‘yicha kechgan kurashlarda, asl bahodirlar o‘z imkoniyatlarini barchaga amalda ko‘rsatdi.

Mudofaa vazirligi jamoasining ikki vakili bu shartda yaradorni 50 metr masofaga evakuatsiya qilib, 58.6 soniyada tibbiy yordam ko‘rsatdi. Natijada mutlaq rekord o‘rnatildi – boshqa jamoa bu topshiriqni ayni vaqt ko‘rsatkichida bajarolmadi.

Ana shunday mardlik va yuksak mahorat bilan o‘zbek merganlari bu yil ham g‘oliblikni qo‘ldan bermadi.

Olg‘a, mard o‘g‘lonlar, olg‘a, Vatan sha’nini yanada baland tuting!

Furqat ERGASHEV,
“Vatanparvar”

Mahorat

MARDLAR MAYDONDA SINALADI



Vatanni himoya qilish – muqaddas burch, uni yuksak mas’uliyat bilan ado etish esa qat’iyat, mardlik va mustahkam bilimni talab qiladi.

Markaziy harbiy okrugning “Sazagan” dala-o‘quv maydonida brigada va batalyon komandirlari, vzvod *(guruh)* komandirlari hamda ularning o‘rinbosarlari, yo‘riqchi-serjantlar ishtirokida ko‘rgazmali-uslubiy mashg‘ulot o‘tkazildi.

Mashg‘ulot davomida Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Markaziy harbiy okrugda joylashgan fakulteti professor-o‘qituvchilari tomonidan amaliy otish, jangovar mashinalarni boshqarish, ularni temiryo‘l platformalariga yuklash, shuningdek avtomobil texnikalarini boshqarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Ko‘rgazmali-uslubiy mashg‘ulotdan ko‘zlangan asosiy maqsad – nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni amaldagi rahbariy hujjatlar talablari asosida to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya etilishini ta’minlashdan iborat bo‘ldi.

Jangovar qobiliyat va tayyorgarlikni yanada oshirish, qo‘shinlarning yuqori darajadagi uyushqoqligi va harakatchanligini, individual shaylikni, komandirlarning yetakchilik sifatlarini yuksaltirishga qaratilgan mashg‘ulotlar jarayonida ishtirokchilar tomonidan bildirilgan savol va takliflar ham atroflicha muhokama qilinib, mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tegishli tavsiya hamda ko‘rsatmalar berildi. Bu boradagi talablar yagona yondashuv asosida muvofiqlashtirildi.

Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi “Termiz” umumqo‘shin dala-o‘quv maydonida ham yurt o‘g‘lonlari mahoratini yuksak ruh bilan oshirish borasida amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etdi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Janubiy operativ qo‘mondonlik fakulteti hamda malakali yo‘riqchilar guruhi hamkorligida Termiz, Kakaydi va Xayrobod garnizonlari harbiy xizmatchilari ishtirokida tashkil etilgan jangovar tayyorgarlik o‘quvlari shaxsiy tarkibning professional tayyorgarligini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mashg‘ulotlar ko‘rgazmali mashqlar bilan boshlandi. Har bir o‘quv nuqtasida vazifalarni bajarishning mas’uliyatli jihatlari, qurol-aslahadan foydalanish sirlari hamda belgilangan nishonlarni bexato urish qoidalari amalda ko‘rsatib berildi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamladi, balki har bir harbiy xizmatchida qat’iy ishonch uyg‘otdi.

Shundan so‘ng tajribali yo‘riqchi mutaxassislar maydondagi o‘quv joylarida, mashqlarni bajarish ketma-ketligi, harakatlarning uzviyligi va xavfsizlik talablarini har bir ishtirokchiga yetkazdi. Belgilangan vaqtning har lahzasi hisobga olingan jarayonda qurol bilan muomala qilish, jangovar mashinalarni murakkab sharoitlarda











boshqarish, nishonlarni tezkor aniqlab, ularni zudlik bilan yakson etish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi.

Eng muhimi, ushbu sinovlar faqat kunduzgi tayyorgarliklar bilan cheklanib qolmadi. Tunda ham davom etgan o‘quvlar harbiylarning ruhiy barqarorligi va har qanday kutilmagan vaziyatda ham tayyor ekanini yaqqol ko‘rsatdi.

Ta’kidlash kerakki, “Termiz” dala-o‘quv maydonida tashkil etilgan matonat va mahorat uyg‘unlashgan mashqlar Vatanni qo‘riqlayotgan mard o‘g‘lonlarimizning qalbidagi o‘t, bilagidagi kuch har qanday sinovni yengib o‘tishga qodir ekanini amalda namoyon etdi.

F. ERGASHEV





O‘quv yig‘ini

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Sharqiy harbiy okrug o‘quv fakultetida ofitserlarning kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan navbatdagi o‘quv jarayonlari tashkil etildi.

KASBIY TAYYORGARLIK – YUKSAK MARRALAR SARI





“Harbiy kasbiy tayyorgarlik” o‘quv kurslari zamonaviy harbiy boshqaruvning ustuvor talablari asosida olib borilib, unda ishtirok etgan ofitserlarning xizmat faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. O‘q otish sporti majmuasida tinglovchilarning qurol-aslaha va o‘qotar qurollardan foydalanish bo‘yicha nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari oshirilib, topshiriqlarni sifatli bajarish qobiliyatlari sinovdan o‘tkazildi.

Kurs dasturidan Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, harbiy xavfsizlik va mudofaa sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, qo‘shinlarni boshqarishning samarali usullari hamda bugungi kun harbiy amaliyotida dolzarb bo‘lgan masalalarni o‘rganish kabi yo‘nalishlar o‘rin olgan.

STRESSNI YENGISH SEMINAR-TRENINGI

“Farg‘ona” dala-o‘quv maydonida batalyon taktik guruhi shaxsiy tarkibi uchun harbiy xizmatchilarning psixologik bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan seminar-trening mashg‘uloti bo‘lib o‘tdi. “Stressni yengish hamda harbiy oilalardagi sog‘lom muhitni mustahkamlash” mavzusidagi mashg‘ulotlarni Farg‘ona davlat universiteti professor-o‘qituvchilari hamda psixologik markaz mutaxassis psixologlari olib bordi.











Harbiy xizmatchilarning turli stressli vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni saqlash, kuchli psixologik bosimlarga bardosh berish, salbiy ruhiy holatlarning oldini olish hamda qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan seminar-trening dasturidan oilaviy munosabatlarning harbiy xizmatchi ruhiy holatiga ta’siri, oilada sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirish, oila boshlig‘ining mas’uliyati va farzandlar tarbiyasidagi o‘rni kabi masalalarga ham alohida e’tibor qaratildi.

Trening davomida ishtirokchilar bilan turli psixologik mashqlar va amaliy topshiriqlar o‘tkazilib, stressni boshqarish, qo‘rquv va xavotirni yengish hamda ruhiy zo‘riqishlarni kamaytirishning samarali usullari tushuntirildi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Chegara qo‘shinlarida



MUNOSIB TUHFA

Jizzax viloyatining so‘lim va maftunkor go‘shalaridan biri – Baxmal tumanida chinakam vatanparvarlik va bunyodkorlik tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga qarashli harbiy qism bo‘linmasida sarhadlarimiz osoyishtaligini qo‘riqlayotgan mard o‘g‘lonlar hamda ularning mehri daryo oila a’zolari uchun zamonaviy inshootlar foydalanishga topshirildi.

Bu qutlug‘ maskanda bo‘y ko‘rsatgan yangi, sun’iy qoplamali minifutbol maydonchasi hamda zamon talablariga mos tikuv sexi Vatan himoyachilarining turmush farovonligini yuksaltirish va kundalik hayotini go‘zallashtirish yo‘lidagi yana bir dadil qadam bo‘ldi.

Inshootlarning ochilish marosimi harbiy orkestr sadolari va yuqori kayfiyat ostida boshlandi. Tadbirda tuman hokimligi mas’ullari, harbiy qism qo‘mondonligi, duogo‘y nuroniylar, mahalla faollari hamda shijoatli yoshlar jam bo‘ldi. Tantanali tadbirda so‘z olganlar so‘nggi yillarda harbiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat armiyamiz qudratini, balki harbiylar va ularning oilalariga bo‘lgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikni ham namoyon etayotganini alohida faxr bilan tilga oldi. Xususan, chegarachilarning jismoniy chiniqishi, sog‘lom turmush tarziga oshno bo‘lishi va eng muhimi, ularning sevimli rafiqalari – harbiy oila bekalarining bandligini ta’minlash masalasi bugungi kun tartibidagi tashabbuslardan biri ekani e’tirof etildi.

Marosimning rasmiy qismi yakunlangach, yangi sport inshootining ochilishi munosabati bilan futbol musobaqasiga start berildi. To‘p uchun kechgan qizg‘in va do‘stona bellashuvlar maydonda haqiqiy bayram kayfiyatini ulashib, ishtirokchilar va muxlislarga unutilmas lahzalarni taqdim etdi.

Ushbu maydon nafaqat harbiy xizmatchilar, balki mahalliy yoshlar uchun ham haqiqiy sog‘lomlashtirish maskaniga aylanadi. Endilikda bu yerda nafaqat harbiylarning ichki musobaqalari, balki Tagob va Tangatopdi qishloqlarining azamat yoshlari ishtirokida ham shiddatli bahslar an’anaviy tarzda davom ettiriladi. Bu esa harbiy qism va mahalla yoshlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini, “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!” degan ulug‘ g‘oyani yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Yaratilgan bunday keng imkoniyatlar va yuksak e’tibor harbiy xizmatchilarning ruhiyatini ko‘tarib, ularning Vatan oldidagi burchlarini yanada mas’uliyat bilan bajarishlariga kuch bag‘ishlaydi.



– Biz, chegarachilar uchun xizmat qilayotgan bo‘linmamizda mana shunday zamonaviy sharoitlarning yaratilishi yuksak e’tiborning yaqqol namunasidir. Ayniqsa, yangi minifutbol maydoni nafaqat bizning jismoniy shayligimizni oshirishga, balki mahalla yoshlari bilan do‘stlik aloqalarimizni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi tikuv sexining ishga tushirilishi esa oilamiz bekalari – turmush o‘rtoqlarimiz doimiy ish bilan ta’minlanishi demakdir. Bunday g‘amxo‘rlik va e’tibor bizni sarhadlarimizni yanada sergaklik bilan qo‘riqlashga, Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi, – deydi serjant Mirjalol Ilishov.

Tadbirning eng hayajonli qismlaridan biri – yangi tikuv sexining ishga tushirilishi bo‘ldi. Zamonaviy va yuqori texnologiyali tikuv mashinalari bilan jihozlangan ushbu shinam maskan harbiylarning turmush o‘rtoqlari uchun chinakam sovg‘a bo‘ldi. Ayni paytda harbiy xizmatchilarning turmush o‘rtoqlari doimiy ish o‘rni bilan ta’minlanib, o‘z oilasi byudjetiga hissa qo‘sha boshladi.

Bu yerda Vatan posbonlari uchun sifatli va ko‘rkam harbiy liboslar tayyorlanadi. Bu maskan nafaqat daromad manbai, balki ayollar uchun o‘zaro samimiy suhbatlar, yangi kasb va nafis ko‘nikmalarni egallash, go‘zallik yaratish ustaxonasiga aylandi.

Tadbir yakunida mehmonlar va harbiy mas’ullar tikuv sexida yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirib, ishchi ayollarning kelgusi faoliyatlariga ulkan zafarlar tiladi.

Chegaralarimiz mustahkam, sarhadlarimizda mana shunday bunyodkorlik va tinchlik nafasi ufurib turar ekan, yurtimizning ertangi kuni bundan-da yorug‘ va farovon bo‘laveradi.

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Chegara qo‘shinlari





Ko‘ngildagi gaplar



Suratlar sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

MUVOZANAT POSANGISI

Bir tanishim esini tanigandan buyon so‘zning ortidan chopadi. Oila qurib, farzand orttirishga ham hafsala qilmadi. Yaqinda ko‘rishsam, yoshi bir joyga borib, nihoyat bu millat yozganlariga arzish-arzimasligi haqida yozg‘ira boshlabdi. “Baribir foydasi yo‘q” degan umidsizlik uni ruhan toliqtirib qo‘ygan edi.

Jamoat transportida ko‘p kuzataman. Guldek yigit-qizlar o‘tirib oladi: qulog‘ida quloqchin, ko‘zlari telefonda. Tepasida yuz yoshdan oshgan momo yoki bobo tik turib o‘lmaydimi, odamlar tiqilib, yetti qavat bo‘lib ketmaydimi – qizig‘i yo‘q. Go‘yo yuragini tambalab olgan – hayvonlardek baxtiyor! Ular o‘zlarini parapsixolog deb ataydigan “mutaxassislar” urfga kiritgan “o‘zini sevish san’ati”ni puxta o‘zlashtirgan... Bu betamizlik bizda keyingi paytlarda paydo bo‘lib qoldi.

Bunday “baxtsiz”lar ham, “baxtiyor”lar ham yurtimizda serob. Birlari umidsizligini ot qilib minib olgan, qayoqqa chopayotganini o‘ziyam bilmaydi. Bilgani – u emas, dunyo aybdor. Ikkinchilarining esa oromi buzilmasa, ortiqcha zahmat chekmasa bas! Qolgan dunyoga o‘t ketmaydimi...

G‘ALVIR HOVUCHGA SIG‘ADIMI?

Rivoyat qiladilarki, bir podshoh qo‘lidan bir ish kelmaydigan ahmoq o‘g‘lini hech bo‘lmasa, biror hunar o‘rgansin deb ustaga shogirdlikka beribdi. Usta bolaga turli bilimlardan, jumladan ilmi nujumdan ham saboq beribdi, bor kuchi bilan bu ilmning sirlarini o‘rgatibdi. Nihoyat, shogirdlik yillari tugabdi. Podshoh imtihon qilish uchun hovuchiga uzugini berkitib, o‘g‘lidan “Bunda nima bor?” deb so‘rabdi. “Qo‘lingizdagi dumaloq, sariq, ichi bo‘sh bir narsa”, degan javobni eshitgach, hayratga tushgan hukmdor: “Alomatlarini to‘g‘ri aytding, endi nomini ayt”, debdi. O‘g‘il: “G‘alvir bo‘lsa kerak”, deb javob beribdi. Podshoh: “Meni hayron qoldirib, olgan tahsiling tufayli alomatlarini aniq aytding-u, lekin g‘alvirning hovuchga sig‘masligiga aqling yetmadimi?!” degan ekan afsuslanib.

ABADIYAT QONUNI

Hazrat Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida 770 ta go‘zal va ibratli hikoyat bor. Ular o‘tgan avliyolarning shunchaki tarjimayi holi emas. Qisqa matnda mahorat bilan har bir siymoning hayoti, ilmiy-adabiy merosi, jamiyatda tutgan o‘rni, e’tiqodiga qadar ta’riflab o‘tilgan. Ularning har biridan ko‘plab ulgu olish mumkin.

Biz-chi?!

Navoiy, Bobur kabi ulug‘larimiz haqida to‘lqinlanib gapiramiz. Tilga tushgan ruboiy va g‘azallarini yod aytamiz. Tavallud kunlari haykali poyiga gulchambar qo‘yamiz. Katta sayildek o‘tkazamiz. Talaba va o‘quvchilar sahna ko‘rinishlari namoyish qiladi. Shu bilan ajdodlarga munosiblik hissini tuyamiz. Biroq oddiy savollar javobsiz qoladi: ularning orasida ulug‘ allomalarni ko‘proq mutolaa qilishga tirishib, nimadir o‘zlashtirib olishga intilayotgani qancha? Ulug‘ ajdodlar qoldirgan adabiy, ilmiy, ma’naviy meros qalbiga o‘rnashib, yaxshi ma’noda bezovta qilyaptimi? Agar shunday bo‘lsa, nega uning jilvasini jamiyatda sezmaymiz?

Jaloliddin Manguberdining vatanparvarligi, jasorati haqida uning yovga qul bo‘lib yashagandan ko‘ra o‘limni afzal ko‘rgani haqidagi rivoyatdan boshqa yana qanday hikoyatlarni bilamiz? Vatan qahramonini harakatga keltirgan qudrat nima edi? Yuragimizda Manguberdining qalb parchalari saqlanib qolganmi?

Bir umr Vatanini qo‘msab yashagan Boburning muhabbatini, zakosini qaysi mezon bilan o‘lchash mumkin? “Boburnoma” haqida ko‘pchilikda umumiy tushuncha bor, holbuki, “Xatti Boburiy” kabi asarlarining sirriga insoniyat haligacha yetib kela olgani yo‘q!..

Bir do‘stim farmatsevtika institutini tugatgan.

“Ahmad Farg‘oniydan, Qoshg‘ariydan nima naf? Hayotda qo‘llash mumkin bo‘lgan fanlarni o‘rganish kerak. Umrimda birorta badiiy asar o‘qimaganman”, deydi u.

Men bilan bir sinfda o‘tirib, bir havodan nafas olgan, ayni muallimlarning sabog‘ini tinglagan yigitning xulosasi, bu. Moddiy manfaat va qarashlardan sal balandlab fikrlay olmaymizmi!?

Navoiy boboni esladik. Asarlarini qo‘ya turaylik, hech bo‘lmasa Oybekning “Navoiy”, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanlarini o‘qib, tabarruk shoirning shaxsiyati, hayoti va faoliyati bilan tanishish ilinjidagi yoshlar qancha deb o‘ylaysiz? Nahotki ko‘zimizga ko‘rinib turgan narsalargagina ishonsak!

Deyl Karnegi kabi psixologlarning ko‘rsatmalarini diqqat bilan tinglab, hayotiga tatbiq qiladigan yoshlarning aksariyatini ma’naviy meros qiziqtirmaydi. Vaholanki, oddiygina maqol yoki g‘azal, ruboiydagi mazmun ularning falon pul to‘lab o‘rganayotgan psixologik bilimlaridan ustun. Hatto birgina satrdagi ma’no ikki olam saodatiga kifoya qilishi mumkin.

Bu yo‘lda barchamiz bir-birimizga yordam berishimiz kerak. Nodar Dumbadze “Abadiyat qonuni” asarida shunday yozadi: *“Insonning yuragi uning tanasidan yuz baravar og‘irroq... Shu darajada og‘irki, uni bir kishi ko‘tara olmaydi... Binobarin, biz, odamlar, toki tirik ekanmiz, bir-birimizga yordam berishimiz, bir-birimizning yuragimizga madad bo‘lishga harakat qilishimiz kerak: siz – menga, men – unga, u esa – boshqa birovga, shu tariqa uzluksiz davom etishi lozim... Toki o‘lim hayotda bizni yolg‘izlik balosiga giriftor qilib qo‘ymasin...”*

“MEN O‘LANNI YOZMAYMAN ERMAK UCHUN”

Eslab ko‘ring-a, qaysidir asarni o‘qib, hech o‘zingizni tuzatdingizmi?.. Xotirlay olmasangiz, nega kitoblar dunyoni obod qilmayotganini iddao qilasiz?!

Nolishga ko‘nikkan odam umr bo‘yi anduh bilan yashaydi. Hatto bo‘kkunicha yegan-ichganining hazm bo‘lmayotganini ulkan baxtsizlik hisoblaydi. Ammo o‘zini zarracha aybdor his qilmaydi.

Alisher Navoiydek zot bunday kimsalardan zada bo‘lib, shunday degan edi:

Xalqdin har yaramas kelsa xush ulkim,
Haqg‘a
Desa bo‘lmas: mening uchun yana bir xalq yarot.

Navoiy bobo umrini ulug‘ bitiklar yaratishga tikkan. O‘z davrida ham, o‘tgan asrlar davomida ham, hozir ham ulardan samarali foydalana olmayapmiz. Oladigan nafimiz ham shunga yarasha.

Yozganlarimiz ta’siridan ko‘ngil to‘lmas ekan, e’tiborni o‘zimizni o‘zgartirishga qaratish lozim. Har bir nafas va nazar nazoratda bo‘lsin, muhimni nomuhimdan ajrata olaylik.

Kimlarningdir istiholasi uchun umr va mablag‘ni havoga sovurish oxirgi paytlar ko‘payib ketdi. “Sendan men kammi?” qabilida isrof qilishda poyga o‘ynashadi. Bunga munosib maqol bor: “Bosh yorilsa, qalpoqning ostida”. Bu qalpoqning ostida qancha boshlar yorilib, qancha norasidalar tirik yetim qoldi.

Biri nogiron eriga qarab, chala yotgan imoratni bitirish uchun kuymalansa, boshqasi qo‘shnisinikidan past bo‘lib qolgan uyini balandlatish ko‘yida jonhalak. Ulug‘ yozuvchimiz Abdulla Qodiriy “Ko‘chamizda hech kimda yo‘q,

boshqa bolalar o‘ksimasin”, deya puli yetsa ham, o‘g‘liga velosiped olib bermagan ekan. Bunday qadriyatlarni unutgandekmiz.

Xo‘sh, jaholat botqog‘iga botayotgan insoniyatni kim yoki nima qutqaradi?

Olomonning najot topishga xohishi bormi? Borgan sari aqlga sig‘maydigan bema’niliklar, jinoyatlar yuz beryapti. Qishloqlarda ming odamni chaqirib to‘y qilishyapti. Xo‘p, qurbi yetganni tushunaylik, lekin bu ish qancha oilalarda taqliddan tug‘ilgan nizolarga sabab bo‘layotganini o‘ylamaydi.

Moddiy tomondan bir misol keltirdik, ma’naviyatimiz qay ahvolda? O‘tgan yili “Dahshatli qotillik... Uch yil avval qizini ayiq qafasiga tashlab yuborgan ayol o‘sha farzandini pichoqlab o‘ldirdi”, degan xabar ko‘pchilikni larzaga keltirdi. Munosabat bildirildi. Ijtimoiy tarmoqlar tavqi la’nat va mulohazalarga to‘lib ketdi. Odamlar bor-yo‘g‘i yangi bir muhokama mavzusi paydo bo‘lgunicha ayyuhannos soldi.

Zimdan nazar solsangiz, teskari aksioma ishlayapti. Xabarni o‘qigan, farzandlarining kelajagi, salomatligi uchun qayg‘urayotgan ota-onaning shashti tushadigandek, harakatini sustlashtiradigandek. Bu holat o‘g‘rilik yoki qotillik haqida maqola yozib, kimlargadir nimalarnidir o‘rgatib qo‘yayotganga o‘xshaydi. Bevafo dunyodan ko‘ngling soviydi. Muammolari-yu muvaffaqiyatlariga qo‘l siltaysan. Navoiy bobo “Xazoyinul-maoniy” devonida bitganidek:

Davron guli-yu gulshani xorig‘a arzimas,
Gulgun mayi baloyi xumorig‘a arzimas.
Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq,
Bir dam alar ihonat-u orig‘a arzimas...

Chuqurroq ketsang, tarki dunyo to‘nini kiyib, taraqqiyotga tushov bo‘ladigandek ko‘rinasan. Ertaga o‘ladigandek oxirat uchun, abadiy yashaydigandek dunyo uchun harakat qil, degan o‘ktam iborani eslab, dadillanasan. Yana nimalargadir intilishni boshlaysan, to boshing devorga urilib, g‘urra bo‘lgunicha. Keyin peshonangni silab o‘tirib, og‘riqning zo‘ridan yana dunyoning jon kuydirishingga “arzimas”ligini anglab qolasan.

Unda nima uchun yashab, o‘qib, yozib yuribman? Qozoq shoiri Abay aytganidek, “Men o‘lanni yozmayman ermak uchun”, desam, rost aytayotgan bo‘lamanmi?

Nega?

Jennifer Lopes degani keldi, minglab odamlar falon pul to‘lab, konsertiga tushdi. Ziyolilar nega odamlarni tekinga jamlay olmayapti? Gap ziyolidami yoki olomonning ma’naviy ahvolida? Qalblarga mutolaaga muhabbat urug‘ini qadab chiqish uchun nima qilish kerak? Qachon kitob odamlarni ma’naviyat bilan bog‘lovchi rishta – mustahkam arqonga aylanadi? Qanday qilsak, odamlarning darajasi bilim va qobiliyati bilan o‘lchanadi?

Jamiyat ahli ilmning obro‘si va hashamatini ko‘rgan yoshlarning bilim olishga rag‘bati oshishini unutib qo‘ydi. Muntazam izlanishlargina hayotda o‘z so‘zini aytadi. Bunday millat har qanday muammoni bartaraf qilib, hamisha ilg‘orlar safida turishga kuch topadi.

Bugun bu tuyg‘ulardan qanchalar olislab ketdik?

“ATOM” ODATLAR

Izchillikning insonlar ongi va hayotiga ta’siri haqida ko‘p yozilgan. Buning hayotdagi isbotini Venesuela, Turkiya, Koreya seriallarining milliy mentalitetimizga ta’sirida ko‘rsa bo‘ladi. O‘quvchilik paytimiz televizorda hindlarning “Mahabharata”, “Ramayana” kabi seriallari berilardi. U mahallar “YouTube”, “Instagram”, “Facebook” kabi ijtimoiy tarmoqlar yo‘q, shu seriallar ta’sirida ulg‘ayganmiz. O‘sha davrlarda kamon yasab, o‘q otib ko‘rmagan bola topilmasa kerak. “Qish sonatasi”ni ko‘rib, muhabbatga mubtalo bo‘lganlar qancha?!

Oila muqaddasligi bir qadar boy berildi. Axborot oqimi qorishib ketgan zamonda har bir insonning qo‘riqchisi faqat uning ongi va qalbi bo‘lib qoldi. Yaxshi odatlarga o‘zimizni ko‘niktirib borsak, albatta samarasini beradi. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov har kuni ma’lum sahifa o‘qimasdan uxlamas ekan. Internetda Xitoy jamoat transportida aholining kitob o‘qiyotgani tasvirlari tarqaldi. Maktab o‘quvchilari avtobus yo metroda o‘tirib olib dars tayyorlayapti. Bizdagi holat o‘zingizga ma’lum.

O‘zbekiston milliy kutubxonasidagina ko‘nglim taskin topib, ruhim ko‘tariladi. Sharoit va imkoniyatni ta’riflamayman, bo‘sh joy topish mahol. Zamonaviy texnologiyalarni, internetni shaxsiy rivojlanishga xizmat qildirayotgan avlod shu yerda. Bu maskanda Vatanimizning eng rivojlangan davlatlar bilan bo‘ylashadigan, bellashadigan mutaxassislarini ko‘rgandek bo‘laman.

Qaniydi, butun mamlakatda ayni shu muhitni hosil qila olsak! Mutolaa va mulohaza kuchi Mirzo Ulug‘bekdek olamshumul kashfiyotlar qilishga, hazrat Navoiydek qalam bilan olamni zabt etishga, Abu Ali ibn Sinodek dunyoga shifo ulashishga yo‘l ochgan bo‘lardi.

Dunyo yana ham “toraydi”. Internet orqali dunyodagi barcha yangilik va o‘zgarishlarni kaftdagidek kuzatib borasiz. Biroq ongimizda real hayot bilan virtual olam qorishib ketdi. Global fikrlayapman deb o‘ylaymiz, biroq ijtimoiy tarmoqlarda o‘qiganlarimizdan hatlab o‘tib, mulohaza yurita olmaymiz. Alomatlarni to‘g‘ri anglaymiz-u, g‘alvirning hovuchga sig‘masligiga aqli yetmagan “tolibi ilm”dek mohiyatdan uzoqlashib ketganmiz.

QIRQ KUNDA KUCHGA KIRGAN BIR JUMLA

Ilm bilan amal vobasta bo‘lsagina, yozganlarimiz ta’sirli bo‘ladi. Olimning kuchi bilimida emas, amalida.

Bir ona farzandini Imom G‘azzoliy huzuriga olib kelib, “Ustoz, bolam shirinlikni juda ko‘p yeydi. Unga nasihat qilib qo‘ysangiz”, debdi. Olim qirq kun muhlat so‘rabdi. Belgilangan kun ona bolasini olib kelibdi. Ulug‘ alloma “Shirinlikni ko‘p yeyish sog‘liqqa zarar. Kamroq ye”, debdi.

Bola bosh irg‘ab, rozi bo‘libdi. Ona hayron bo‘libdi: “Shu gapni qirq kun oldin aytsangiz bo‘lardi-ku. Nega kuttirdingiz?”

“O‘sha paytda shirinlikni ko‘p iste’mol qilardim. Qirq kun o‘zimni tiydim. Nasihat amal bilan quvvatlanmasa, qalbga yetib bormaydi. Qur’oni karimda shunday bitilgan: “Ey iymon keltirganlar! Sizlar nega o‘zlaringiz qilmaydigan narsani *(qildik yoki qilamiz deb)* aytursiz?!” *(Saf surasining 2-oyati)*”, debdi G‘azzoliy hazratlari.

Shunday ekan, yozganlarimiz ta’sir qilmasa, hasratdan ne naf? Bu haqda o‘ylab, “omma uchun ijod qilish, ko‘z nurini to‘kish, vaqt sarflash hayf”, deydigan “ziyoli”larga yolg‘on tasalli berishdan tiyilasan.

Hayotimga kuchli ta’sir qilgan asarlardan biri Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi bo‘ldi. Kitob o‘ttiz-qirq yosh oralig‘imda meni Haq bilan bog‘lovchi vositaga aylandi. Har tongni ushbu asar mutolaasi bilan boshlayman. Qalbim yorishib, dunyoni ayricha idrok etayotganimni his qilaman. Hayotimda kitobdagi mezonlar ishlay boshlaydi. Asabim buzilsa, dilim xufton bo‘lsa, tazkirani o‘qiyman. Issiq choyda qand erib ketganidek dilimdagi g‘ashliklar ariydi. Kuch-quvvatga to‘lib, kayfiyatim ko‘tariladi.

Sizning shunday kitobingiz bormi?

ARQONINGIZ MUSTAHKAMMI?

Zamonaviy dunyoda ko‘pchilik norasmiy jurnalistga aylandi. Farzandini yaqindagina dunyoga keltirgan ona va bolaning surati ular tug‘uruqxonadan chiqqunicha Yer sharini necha bor aylanib keladi. Shu qadar berilib ketganlar paydo bo‘ldiki, kimdir o‘lsa, janozadan tortib mozorining suratigacha internetga joylashtiradi. Ketidan uzun “vido xati” yozadi. Go‘yo o‘lik qabrida telefon kovlab yotadigandek.

O‘qisangiz, eslab qolishga, qayd etishga, ibrat olishga oshiqadigan voqea va iqtiboslarning sanog‘i yo‘qdek. Ular uchun qimmatli umringdan boj to‘laysan. Hech vaqo yodingda qolmaydi.



Suratlar sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

MUQADDAS RICHAG

Dunyo muvozanatini, posangisini saqlab turuvchi asosiy manba – Qur’oni karim. Kitoblar inson tafakkurini tartibga solsa, Qur’on hayotning asl ma’nosi va mohiyatini anglatadigan ilohiy qo‘llanmadir.

Ollohning ushbu qutlug‘ arqonini mahkam tutganlar najotga erishyapti. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Men sizlarga ikki narsani qoldirdim, ularni mahkam tutsangiz, hech qachon adashmaysizlar: Ollohning kitobi va mening sunnatim”, deydi.

Qur’oni karimning ilk oyati ham “Iqro” *(“O‘qi”)* amri bilan boshlangan. Buyurilganiga amal qilsak, kifoya. **Imom Buxoriy bobomiz ta’kidlaganidek, “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay!”**

Aziz NORQULOV,
jurnalist

Millat fidoyilari

QAHRAMONLAR QISSASI



Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi jangovar harakatlar ishtirokchisi Bobomurod Nuratov bilan suhbat

(Oxiri. Boshi o‘tgan sonda)

– Jangarilar strategik va taktik jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan, deyishadi. Ular pozitsiyalarimizni aniqlash va o‘qqa tutish uchun fonar boylangan eshak yoki echkilarni pastga haydab yuborgan. Biz tomondan o‘q otilganda esa joylashuvimizni bilib olib, aynan o‘sha nuqtalarga qarata zarba berishgan.

– Ha, bu voqea Kishtut tepaligida yuz bergan. Qorong‘ida ikki-uchta fonar yoqilgan holda pastga qarab tushib kelayotganini ko‘rib, o‘sha tomonga qarata o‘q uzganimizdan so‘ng ular aynan o‘sha otishma nuqtalarimizga qarata qarama-qarshi zarba berishni boshlagan.

Xalqimizda “Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘i”, degan naql bor. Sariosiyodagi janglarda bunga amin bo‘lganman: o‘n besh kun tim qorong‘i, o‘n besh kun esa oydin tun bo‘lar ekan. Oydinda jang olib borish nisbatan yengilroq, chunki tungi ko‘rish moslamalari aniq ko‘rsatadi. Zulmat qorong‘ida esa faqat eshitish orqali harakatlanishga majbur edik. Ana shu kechalarda ham dushmanga munosib zarba bera olganmiz.

– Suhbatimiz boshida parollar *(o‘ronlar)* haqida to‘xtalib o‘tgan edingiz, ulardan noodatiy tarzda foydalanilganini aytdingiz. Shu haqda batafsilroq so‘zlab bersangiz.

– Aloqa vositalarida har doim: “Ehtiyot bo‘l, seni dushman eshityapti!” degan ogohlantirish yozilgan bo‘ladi. Bu mutlaqo to‘g‘ri, chunki radioto‘lqinlar ba’zan ustma-ust tushib qoladi – ularning ovozi bizga, bizniki esa ularga eshitilishi mumkin. Bu amaliyotda ko‘p uchragan. Shu bois Maxsus operatsiya kuchlari bo‘linmalarida har bir harbiy xizmatchining alohida, maxfiy shartli nomi *(laqabi)* bo‘ladi. Vaziyatga qarab u darhol almashtiriladi va buni o‘sha guruhdan boshqa hech kim bilmaydi. Bo‘linma miqyosidagi yirik harakatlar uchun esa umumiy parollar belgilanar va biz ana shu maxfiy so‘zlar orqali harakatlanar edik.

– Tozalash amaliyotlari jarayonida yana qanday esda qolarli voqealar bo‘lgan?

– Tog‘dagi daraxtzor orasidan bir xonadonga duch keldik. Kinolarda o‘q uzilsa, qulf zanjirlari uzilib, eshik sharaqlab ochilib ketishini ko‘rardik. Rahmatli komandirimiz Farmon aka Ismatullayev qulfga qarata bir, ikki, uch marotaba o‘q uzdi. Ammo real hayotda unday bo‘lmas ekan. O‘q teshib o‘tsa-da, qulf ochilmadi. So‘ng eshikni tepib ochib kirganmiz.

Qishloqlarni tozalashda har bir qarich yerni, uy ichida hatto sandiqlarni sinchkovlik bilan tekshirardik. Chunki u yerda jangarilarning yashirin o‘q-dorilari yoki qurollari bo‘lishi mumkin edi. Shu jarayonda aholining xonadonlarida biz yoshligimizda kattalardan eshitgan qadimiy “krepdeshin”, “sakkiz tepki” kabi matolarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rganmiz.

Aholini evakuatsiya qilish jarayoni ham yodimda: bir kichkina qizcha toshloq yo‘lda bizdan ham tez yugurib borardi. Chunki u shu tog‘larda tug‘ilib o‘sgan, muhitga juda yaxshi moslashgan edi.

– Xabaringiz bor, milliy armiyamizda xorijiy atamalar o‘rniga sof o‘zbekcha so‘zlar joriy etilmoqda. Jumladan, siz aytgan “parol” so‘zi o‘rniga “o‘ron” atamasi qo‘llanilmoqda. Bu Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur zamonlaridan beri qo‘llanib kelingan tarixiy harbiy so‘z. O‘sha paytda shaxsan sizda qanday o‘ronlar bo‘lgan?

– O‘ronlar vaziyatga qarab, bevosita joyida belgilanardi. Bir marotaba qo‘yilgan o‘ron oxirigacha turmasdi, xavfsizlik vaziyatiga qarab tez-tez almashtirib turilardi.

– Jangovar harakatlar qancha vaqt davom etdi?

– Birinchi avgust kuni borib, birinchi oktabr kuni qaytib kelganmiz. Rosa ikki oy jang maydonida bo‘ldik.

– Shu ikki oy ichida sizga eng qattiq ta’sir qilgan voqea nima bo‘ldi?

– Eng og‘ir va ta’sirli voqea jigarimizga aylangan safdosh do‘stlarimning halok bo‘lgani. Har birining vafoti men uchun og‘ir bo‘lgan.

Safdoshlarimiz orasida farzandlariga halok bo‘lgan qahramon do‘stlarimizning ismini qo‘yish ezgu an’anaga aylangan. 2007-yilda o‘g‘il ko‘rganimda, Doniyor deb ism qo‘ysam, Elomon xafa bo‘ladigandek, Elomon desam, Otabek, Ulug‘bek, Sayyor kabi do‘stlarimning ruhi oldida qarzdor bo‘lib qoladigandek tuyulaverdi. Chunki ularning barchasi alohida ehtiromga loyiq edi. Shu sababli do‘stlarimning umumiy xotirasi va murodi sifatida o‘g‘limga Do‘stmurod deb ism qo‘ydim. Bu ism orqali barcha safdoshlarimning xotirasi yashaydi.

Ismlarda ham katta hikmat bor ekan. Masalan, Elomonning ismiga e’tibor bering – “El omon”. U o‘z nomiga munosib ravishda vazifasini bajarib, elning omonligi va tinchligi yo‘lida jonini fido qildi. Unga bag‘ishlab hatto she’r ham yozganman.

– O‘sha jangarilar yo‘q qilinganini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingizmi?

– Ha, ko‘rganmiz. Dushman inson bo‘lib dunyoga kelganiga pushaymon bo‘lgan. O‘shanda jang uch kunlab davom etgan. Ularning jasadlarini jangovar mashinalarga ortib, vertolyotda olib chiqishgan. Aslida dushman jasadlari vertolyot ichiga qo‘yilishga ham munosib emas edi...

– Sariosiyo voqealari milliy armiyamizni, xususan Maxsus operatsiyalar kuchlarini katta bir sinovdan o‘tkazdi. Bu voqealardan qanday saboqlar chiqarildi?

– Eng katta saboq qurolni hech qachon o‘zingizdan uzoqlashtirmaslikdir. Harbiylar tilida qurol eng yaqin do‘st. Bu do‘stdan bir qadam ham nari ketmaslik, kerak bo‘lsa, uni quchoqlab uxlash lozimligi yana bir bor o‘z isbotini topdi. Chunki og‘ir vaziyatda sizni faqat shu “do‘st” qutqarib qoladi.

– Qahramonlardan yana kimlarni eslab o‘tgan bo‘lardingiz?

– Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidan do‘stimiz Sherali Ehsonov xotiramda muhrlanib qolgan. U bizning guruhda edi. Jang paytida u toshning o‘ng tarafidagi dushmanni urganini aytdi. Otishma to‘xtab, hududni tozalashga kirishganimizda, haqiqatan ham Sherali aytgan nuqtadan dushman jasadini topdik.

Keyin yana bir voqea esimda. Kechqurun oy yorishib turgan payt. Bir tomonda xavfli nuqta, boshqa tomonda esa o‘zimizga panoh qilib olgan okoplarimiz. Kunduzi tozalash ishlari olib borilgani uchun kechasi 1-2 soat mizg‘ib olishga imkon topildi. To‘satdan otishma boshlanib qoldi. Ko‘zimni ochdim-u, o‘zimni bir-ikki metr pastroqqa tashlab, u yoq bu yoqni to‘g‘rilab olmoqchi bo‘ldim. Eng qizig‘i, u tomonda ham o‘q ovozlari, otishma davom etayotgan ekan. Uch-to‘rt soniya ichida qanday qilib panaga o‘tib olganimni bilmay qoldim. Odamda bunchalik kuch qayoqdan paydo bo‘lishi mumkin? Menda ilgari ham, undan keyin ham bunday favqulodda kuch bo‘lmagan. Keyinchalik o‘sha harakatni amalda takrorlashga harakat qildim, lekin uddalay olmadim. Xavf tug‘ilganda insonni bir soniyada xavfsiz joyga uloqtirgan narsa – yashashga bo‘lgan kuchli ishtiyoq va ichki shijoat edi.

– Mudofaa vazirligi ishlar boshqarmasi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi polkovnik Tohir aka Mamarahimov ham bir qiziq voqeani eslagan edi. “Qishloq yaqindek ko‘rinadi, lekin tog‘ so‘qmoqlaridan tushib-chiqish juda murakkab bo‘lgani uchun u yerga yetib borguncha bir-ikki soatlab vaqt yo‘qotardik”, degandi...

– Xuddi shunday. Tog‘da hamma narsa ko‘zga yaqin bo‘lib ko‘rinadi. “Ertalab aytilgan manzilga tushgacha yetib boramiz”, deb o‘ylaysiz, lekin so‘qmoqlar va tik qoyalar sabab manzilga faqat kunbotar mahal *(soat to‘rt-beshlarda)* yetib borish mumkin edi.

– Jangarilarning o‘sha paytdagi taktikasi haqida ham gapirib bersangiz. Tinch aholini aldab, o‘zlariga makon qilib olishgani haqida eshitgandik.

– Ular juda puxta tayyorgarlik ko‘rgan ekan. Chunki tog‘da 2-3 kun ichida o‘ziga mustahkam istehkom qurish mumkin emas-da. Ular mahalliy aholini “Sizlarga gaz va elektr tarmog‘i o‘tkazib beramiz”, deb aldab, kerakli joylarni kovlatgan. Sirli ravishda paydo bo‘lib-yo‘qolib qolishlar oldindan tuzilgan reja asosida bo‘lgan. Ular hududni,



Surat tahririyat arxividan olindi

qochish va yashirinish yo‘llarini juda yaxshi bilgan. Jangarilarning qurol va anjomlarini topganimizda, ular mahalliy sharoitga moslashgan ashyolardan unumli foydalanganiga guvoh bo‘ldik. Masalan, og‘ir ryukzaklardan ko‘ra xurjunlardan foydalanishgan, yerda yotishganda nam va sovuq o‘tmasligi uchun qalin kigizlarni jangovar kamarlariga boylab olishgan.

– Katta tosh orqasiga joylashib olgan dushman guruhi haqida so‘zlab bersangiz.

– Kunduzi hududni to‘liq tekshirib, tozalab chiqamiz – hech kim yo‘q. Kechqurun esa o‘sha nuqtadan biz tomonga o‘q yog‘iladi. Ma’lum bo‘lishicha, ular tog‘ning mustahkam qoyasi ortida juda ustalik bilan yashirin makon tayyorlab olgan ekan. Jang qilishadi-da, darhol o‘sha chuqurlarga kirib ketishadi. Keyinchalik o‘sha makondan katta miqdordagi dori-darmon va oziq-ovqat zaxiralari topildi. Lekin ungacha biz 2-3marta borib ham ularni topa olmagan edik.

24-avgust kuni harbiy qismimiz tashkil topgan kun edi. Shu munosabat bilan bizni tog‘ tizmasidan pastga – aerodromga tushirishdi. U yerda bayram dasturxoni va taqdirlash marosimi tashkil etilgandi. Lekin bitta bo‘linmamiz pastga tushishni xohlamadi. Bo‘linma komandiri: “Sizlarni olib ketish uchun vertolyot yuborilmoqda” deganda, ular: “Toki mana shu tepalikdagi dushmandan do‘stlarimizning alamini olmagunimizcha, hech qanaqa bayramga bormaymiz!” deb rad etdi. Oxiri komandirning o‘zi vertolyotda borib, ularni shaxsan olib tushishga majbur bo‘lgan. Bu voqeada komandir va askarlar o‘rtasidagi yuksak hurmat va quroldoshlik mehri yaqqol namoyon bo‘lgan edi.

– Mana shu jangovar birodarlik va harbiy do‘stlik tuyg‘usi haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz.

– Jangovar birodarlik – bu so‘z bilan ta’riflab bo‘lmaydigan oliy tuyg‘u. Bu borada Maxsus operatsiya kuchlari va bo‘linma komandirlariga alohida minnatdorlik bildiraman. Ular bizni hech bir bayramda chetda qoldirmaydi, doimo taklif etadi.

Bir safar harbiy qismda yig‘ilganimizda, juda ta’sirli hodisaga guvoh bo‘ldik. Yigitlar o‘zlari ilgari foydalangan qurollarni ko‘rib, go‘yo qadrdon do‘stlari bilan ko‘rishgandek bo‘ldi. U yerda qahramonlarcha halok bo‘lgan Elomon va Doniyorning qurollari haligacha e’zoz bilan saqlanadi. Bo‘linmada tungi yo‘qlama paytida ularning nomi alohida e’tirof etiladi...

– Bu haqiqatan ham juda ta’sirli...

– Ha, safda turib buni eshitishning o‘zgacha haybati bor. Tungi yo‘qlamada: “Otajonov Elomon!” deb chaqirilganda, “Vatan uchun qahramonlarcha halok bo‘lgan!” deb javob beriladi. Keyin mendan oldingi safdoshim “Men!” deydi va keyingi familiya o‘qiladi: “Tojiboyev Doniyor!” “Vatan uchun qahramonlarcha halok bo‘lgan!”

Men safda aynan shu ikki qahramon do‘stimning o‘rtasida turardim. Har kuni tungi yo‘qlamada ularning nomi baralla yangrashi qahramon do‘stlarimizga bo‘lgan buyuk ehtiromdir.

– 1-oktabr kuni jang maydonidan qaytayotganingizda avtobusda bo‘lgan bir voqeani eslagan edingiz... Bo‘sh qolgan o‘rindiqlar haqida.

– Janglar yakunlanib, qaytishga buyruq berildi. Sariosiyodan Termiz tomon harakatlanayotgan avtobusda uzoq yo‘l yurardik. Bir mahal Dilshod G‘afurov ismli do‘stimiz to‘satdan yig‘lab yubordi. Vzvod komandiri va hammamizning nigohimiz unga qaratildi. “Do‘stlarimizning xotirasi va so‘nggi izlari shu tog‘larda qolgani uchun o‘zini tuta ololmayapti shekilli”, deb o‘yladik va uni yupatishga tushdik: “Dilshod, o‘zingni bos, yig‘lama...” Shunda u ko‘zyoshlarini to‘xtata olmay: “Qanday qilib o‘zimni bosay?



Avtobusda uchta o‘rindiq bo‘sh ketayotgan bo‘lsa...” dedi.

Jangga ketayotganda bu avtobus to‘la edi, hamma o‘rindiqlar band edi. Qaytayotganda esa uchta o‘rindiq bo‘sh qolgan edi...

Dilshodning bu gapidan so‘ng hammaning ko‘ziga yosh keldi. O‘shanda butun avtobus, butun vzvod yig‘lab qaytgandi....

– Sizni nafaqat jangovar ofitser, balki mahoratli ijodkor sifatida ham bilamiz. She’rlar yozib, qo‘shiq ham aytasiz.

– Mana shu xotiralarga bag‘ishlab yozilgan satrlar bor:

Marjon toshdek terilib turar lochin yigitlar,
Vatan uchun jonini berar uchqun yigitlar,
Ostonasin muqaddas Vatan bilar yigitlar,
Maxsus topshiriqlarni sharaf bilar yigitlar.

Doim tayyor yigitlar – qor-yomg‘irli kunda ham,
Yo‘lin topa oladi qora zulmat tunda ham.
Yo‘lboshchimiz ishonchin oqlaydigan yigitlar,
Yurtni yovuz kuchlardan saqlaydigan yigitlar.

Shahidlik maqomida ko‘kka uchgan yigitlar,
Aziz ona yurtim deb olg‘a ketgan yigitlar,
Qurolli Kuchlar faxri, ona Vatanning faxri –
Asli sizlarsiz botir, mardi maydon, yigitlar!

– Bugun siz O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida tahsil olyapsiz, shundaymi?

– Xuddi shunday.

– Necha yoshdasiz?

– 47 yoshda.

– 47 yoshingizda-ya? Bu yoshda jurnalistika sohasini tanlashingizga nima turtki bo‘ldi? Bugungi harbiy jurnalistlarning faoliyatidan qoniqmaganingiz uchunmi?

– Yo‘q, men ularning safini yanada kengaytirish va to‘ldirish maqsadida o‘qishga kirdim.

– Eng qizig‘i, ustozlaringizning aksariyati sizdan yosh, to‘g‘rimi?

– Xuddi shunday, ustozlarimning asosiy qismi yosh jihatdan mendan kichik. Men sohaning sir-asrorlarini Orifjon Mamajonovdan o‘rganganman. Jurnalistikaga kirib kelishimda va mutaxassis sifatida shakllanishimda mahoratli jurnalist Furqat Ergashevning xizmati juda katta.

– Albatta, “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, deyishadi-ku. Bobomurod aka, sizni chin ma’noda vatanparvar inson sifatida bilamiz. Uyingiz darvozasi tepasida mamlakatimiz bayrog‘i hilpirab turganining o‘ziyoq bunga yorqin misol.

– Xuddi shunday, bu biz uchun faxr va iftixordir.

– Oilangiz haqida ham qisqacha aytib o‘tsangiz.

– Turmush o‘rtog‘im bilan to‘qqiz yil gaplashib, keyin turmush qurganmiz. Sariosiyo voqealari paytida hozirgidek uyali aloqa vositalari yo‘q edi. Qishloq sharoitida oriyat, aka-uka va qarindosh-urug‘lar bor. O‘sha kunlarda xavotir olishmasin, oilaning obro‘siga gap tegmasin, deb juda xavotir bilan “Men yaxshiman” degan qisqagina telegramma yuborganman.

– Javob kelganmi?

– Javob yozishning iloji bo‘lmagan. Keyinchalik so‘rasam, paxta terayotgan paytlarida telegrammani olib borib berishgan ekan. Uyga ota-onamga ham faqat bir xil mazmunda xat yozardim: “Men yaxshiman, xizmat safaridaman”.

– Ota-onangiz jangovar harakatlarda ishtirok etayotganingizni bilganmi?

– Yo‘q, ular bilmagan. Xavotirga qo‘ymaslik uchun katta akam ularga aytmagan.

– Lekin akangizning o‘zi jarayondan xabardor edi, a?

– Akam harbiy avtomobil nazoratida xizmat qilardi. U ham jangovar harakatlar hududiga kelgan edi. Bir oiladan ikki o‘g‘il jang maydonida edik. Akam biz uchun zarur bo‘lgan o‘q-dori, oziq-ovqat va aslahalarni tashish va kuzatib borish mas’uliyatini olgan edi. Tog‘dan pastga tushganimda u bilan ko‘rishib turardik.

Bir safar akam vertolyot uchuvchisi orqali menga kiyim-kechak va zarur ashyolar berib yuboribdi. Lekin jangovar hududda uchuvchi meni qayerdan topadi? Akamning bu harakati ortida jigarbandlik mehri va xavotiri yotardi. Keyinchalik akam: “Narsalarni oldingmi?” deb so‘raganida, ko‘ngli xotirjam bo‘lsin deb: “Ha, oldim”, deganman. Vaholanki, o‘sha ashyolarni men emas, jangdagi boshqa bir Bobomurod ismli safdoshimiz olgan va foydalangan edi.

– Zaxiraga bo‘shaganingizdan so‘ng qishlog‘ingizda harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida o‘quv markazi ochganingizdan xabarimiz bor.

– Inson hayotda ajdodlar va avlodlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Xizmatdan qaytgach, yoshlarning asosiy vaqti telefonga sarflanayotganini ko‘rib, “Maqsad” nomida o‘quv markazini tashkil etdim. Markazga rahmatli onam Maqsadxonning ismini berdim. Inson oldiga aniq maqsad qo‘yishi va unga intilishi kerak.


Markazga kelgan har bir o‘quvchiga qat’iy talab qo‘ydim: ertalab soat 5:00 dan 7:00 gacha majburiy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Maxsus operatsiya kuchlaridagi me’yorlarni yoshlar darajasiga moslashtirgan holda mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘ydik. Ular ertalab madhiyani va jangovar chaqiriqlarni kuyladi. Mashg‘ulot yakunida ularga savol beraman: “Insonning qalbi qanday bo‘lsa...”, ular baralla javob beradi: “...dunyo ham shunday ko‘rinadi!”

Shuningdek, ota-ona tomonidan to‘lanadigan kunlik o‘qish to‘lovining qadrini tushuntiraman. Peshona teri bilan topilgan pul oyoqosti bo‘lmasligi kerakligini ko‘rsatish uchun ba’zida o‘zimni ishchi rolida ko‘rsatib, sahna mahoratini qo‘llayman. Shundagina farzand ota-onaning mehnati va e’tiborini qadrlashni o‘rganadi.

– Suhbatimiz davomida Sariosiyo va Uzundagi jangovar harakatlarda Vatan tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qilgan qahramon safdoshlaringizni esladik. Ularning oxirati obod bo‘lsin. Xalqimiz va yurtimiz bunday mard o‘g‘lonlarni hech qachon unutmaydi.

– Sizga ham katta rahmat. “Qarorgoh” – bu ajdodlarimiz va sarkardalarimiz tomonidan qo‘llanilgan, bizning harbiy tilimizdagi “shtab” va “idora” ma’nosini anglatuvchi juda teran so‘z. Ko‘rsatuv ijodkorlariga, Qurolli Kuchlar safida Vatan himoyasida bo‘lgan barcha harbiy xizmatchilarga zafarlar tilayman!

Olimjon O‘SAROV suhbatlashdi.



Tarix sabog‘i



URUSHDAGI O‘QUVCHI-ASKARNING ONASIGA MAKTUBI

Urush haqida tarix kitoblari ko‘p gapiradi. Unda sana, hudud, harbiy qismlar, front chizig‘i, g‘alaba va mag‘lubiyatlar tilga olinadi. Ammo urushning eng achchiq haqiqati ba’zan rasmiy ma’lumotlarda emas, oddiy insonning qalbidan chiqqan bir parcha xatda namoyon bo‘ladi.

Janubiy Koreya tarixida ana shunday ta’sirli hujjatlardan biri – o‘quvchi-askar Li U Gyunning onasiga yozgan maktubi. U bu maktubni Koreya urushi avjiga chiqqan bir paytda yozgan. Ertasi kuni esa Pohang shahridagi janglarda halok bo‘lgani haqida tarixiy manbalarda qayd etilgan. Mazkur maktub keyinchalik uning cho‘ntagidan topilgani va Koreya urushi xotirasida alohida o‘rin tutgani bayon etiladi.

Bu xatda katta siyosat ham, harbiy buyruq ham, g‘alaba haqidagi balandparvoz so‘zlar ham yo‘q. Unda bola qalbi, onaga sog‘inch, o‘limdan qo‘rquv, yashash istagi va urushning inson ruhiyatiga solgan og‘ir jarohati bor.

“Li U Gyun
1950-yil 10-avgust. Havo ochiq.

Onajon, men odam o‘ldirdim. Bitta tosh devor oramizda turgan holda, taxminan o‘n nafar odamni. Men ikki nafar boshqa o‘quvchi-askar bilan birga qo‘l granatasini otdim. Bu qo‘rqinchli portlovchi qurol edi. U odamlarni ko‘z yumib-ochguncha o‘ldirdi va qulog‘im pardasini yirtib yubordi. Hatto hozir, shu maktubni yozayotgan paytimda ham, o‘sha dahshatli portlash sadosini eshitib turgandekman.

Dushmanlarning qo‘l-oyoqlari uzilib ketdi. Bu juda shafqatsiz o‘lim edi. Ular dushman, ammo ular ham inson. Biz esa bir xil odamlarmiz: bir tilda so‘zlashamiz, qonimiz bir. Ichim ezilyapti, yuragim og‘ir. Onajon, nega biz urushishimiz kerak? Bu murakkab va iztirobli hislarimni sizga aytmasam, ko‘nglim tinchimaydi.

Men qo‘rqyapman. Yonimdagi o‘quvchi do‘stlarim yerga yotib olgan, go‘yo o‘limni kutayotgandek, dushmanlarning kelishini kutyapti. Boshimiz ustidagi quyosh juda issiq. Dushmanlar jim turibdi, lekin ular qachon yana bostirib kelishini bilmaymiz. Ular juda ko‘p, biz esa atigi 71 nafarmiz. Keyin nima bo‘lishini o‘ylasam, dahshatga tushaman. Onajon, bu urush tezroq tugashini juda xohlayman, shunda sizni bag‘rimga bosa olardim.

Kecha kiyimimni yuvayotganimda ikki narsani o‘yladim: siz men uchun yuvib beradigan oppoq va toza kiyimni va o‘zim yuvgan oddiy kiyimni. Nega, bilmayman, ammo toza kiyimimni almashtirayotganimda, kafan xayolimga keldi. Kafan, onajon, kafan. O‘liklar uchun mato.

Onajon, men bugun halok bo‘lishim mumkin. Son-sanoqsiz dushmanlar ortga chekinadi deb o‘ylamayman.

Onajon, men o‘limdan qo‘rqmayman. Men sizni va aka-ukalarimni qayta ko‘ra olmasligimdan qo‘rqaman. Ammo men uyga qaytaman. Men tirik qolaman, onajon. Men tirik qolaman va sizning oldingizga qaytaman.

Hozir salat bargiga o‘ralgan guruch yegim kelyapti. Buloqdan tishlarim zirqirab ketguncha, istaganimcha sovuq suv ichgim kelyapti.

Yo‘q! Dushman askarlari yana kelyapti. Maktubni yozishni keyin davom ettiraman, onajon. Xayr, xayr... Yo‘q, xayr demayman.

Men sizga yana yozaman...”

Maktubda aks etgan voqealar Koreya urushi davrida, Janubiy Koreyaning janubi-sharqiy qismidagi Pohang shahri atrofida sodir bo‘lgan. Pohang – Kyonsanbuk-do hududida, Koreya yarimorolining sharqiy sohilida joylashgan shahar. 1950-yilning yozida bu hudud harbiy jihatdan juda muhim nuqtaga aylangan.

Koreya urushi 1950-yil 25-iyunda Shimoliy Koreya qo‘shinlarining 38-parallel bo‘ylab Janubiy Koreyaga hujumi bilan boshlangan. Urushning dastlabki haftalarida Shimoliy Koreya qo‘shinlari tez ilgarilab, Seulni ham egallagan. Janubiy Koreya va BMT kuchlari janubga chekinishga majbur bo‘lgan. 1950-yilning avgust oyi boshiga kelib Janubiy Koreya va uning ittifoqchilari asosan Pusan atrofidagi mudofaa chizig‘ida turib qolgan edi. Bu chiziq tarixda “Pusan perimetri” yoki Naktong daryosi mudofaa chizig‘i sifatida tilga olinadi.

Pohang ana shu mudofaa tizimi uchun muhim hududlardan biri edi. Agar Pohang yo‘nalishi yorib o‘tilsa, Pusan atrofidagi mudofaa holati yanada og‘irlashishi mumkin edi. Shu sababli 1950-yilning avgust oyida Pohangdagi har bir maktab, har bir ko‘cha, har bir tepalik harbiy ahamiyat kasb etgan.

Tarixiy manbalarda Li U Gyun ishtirok etgan jangda 71 nafar o‘quvchi-askar Shimoliy Koreya qo‘shinlariga qarshi kurashgan, ulardan 48 nafari halok bo‘lgan.

Bu savol har qanday o‘quvchini o‘ylantiradi: nega hali maktab yoshidagi bolalar urush maydoniga tushib qoldi?

Javob urushning og‘ir va shoshilinch vaziyati bilan bog‘liq. 1950-yilning yozida Janubiy Koreya armiyasi katta bosim ostida edi. Dushman qo‘shinlari shitob bilan tez ilgarilab kelar, front chizig‘i qisqarib, mamlakat janubi-sharqiy qismi hal qiluvchi mudofaa hududiga aylangandi. Bunday sharoitda ko‘plab yoshlar, talabalar va o‘quvchilar Vatan himoyasi uchun ko‘ngilli ravishda safga qo‘shilgan. Li U Gyun ham shunday o‘quvchi-askarlardan biri edi. U Seuldagi Dongson o‘rta maktabining 16 yoshli 9-sinf o‘quvchisi bo‘lgani, Koreya urushi paytida o‘quvchi ko‘ngillilar safida jangga kirgani qayd etiladi. Tarixiy ma’lumotlarda u 1950-yilning avgust oyida Pohang jangida ishtirok etgani va Pohang qizlar o‘rta maktabi oldida halok bo‘lgani ko‘rsatiladi.

Bu yerda eng og‘ir haqiqat shundaki, urush bolani bolaligidan ayirdi. Daftar tutishi kerak bo‘lgan qo‘liga qurol tutqazdi. Ona mehridan bahra olishi kerak bo‘lgan bolani o‘lim yoki tirik qolishdek g‘aflat o‘rtasida qoldiradi.

Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, Koreya urushi bir kunda paydo bo‘lgan nizo emas. Ikkinchi jahon urushidan keyin Koreya yapon mustamlakachiligidan ozod bo‘lgan. Ammo ozodlikdan so‘ng yarimorol 38-parallel bo‘ylab ikki qismga bo‘lindi. Shimolda Sovet Ittifoqi ta’sirida, janubda AQSh ta’sirida alohida siyosiy tizimlar shakllandi. 1948-yilda shimol va janubda alohida hukumatlar tashkil etiladi. Har ikki tomon ham butun Koreya ustidan qonuniy hokimiyat da’vosini ilgari suradi.

1950-yil 25-iyunda esa Shimoliy Koreya qo‘shinlari 38-paralleldan o‘tib, Janubiy Koreyaga hujum boshlaydi. Shu tariqa Koreya urushi boshlanadi. Urush nafaqat ikki siyosiy tizim, balki bir tilda gaplashadigan, bir tarixga ega, bir qondan bo‘lgan xalqning o‘zaro to‘qnashuvi sifatida ham koreys millati taqdirida og‘ir iz qoldirdi.

Li U Gyunning maktubida guvohi bo‘lganingizdek, ana shu fojia juda kuchli aks etgan. U dushmanni ko‘radi, lekin ularni faqat dushman sifatida emas, inson sifatida ham his qiladi. U “ular dushman, ammo ular ham inson, biz bilan bir tilda gaplashadi, qonimiz bir” degan ma’nodagi og‘riqli fikrni aytadi. Bu satrlar Koreya urushi faqat harbiy to‘qnashuv emas, balki millatning ichki jarohati ekanini ko‘rsatadi.

Li U Gyunning maktubi urush haqidagi eng ta’sirli haqiqatlardan biridir. Unda jasorat bor, qo‘rquv bor, ammo u qochish istagi emas. Unda o‘lim haqida o‘y bor, ammo hayotga muhabbat undan kuchliroq.

U onasini sog‘inadi. Urush tugasa, onasini quchoqlashni istaydi. U salat bargiga o‘rab yeyiladigan guruchni sog‘inadi. Buloqdan tishlari zirqiraguncha sovuq suv ichishni orzu qiladi. Bu oddiy istaklar aslida urushdan charchagan bolaning hayotga bo‘lgan muhabbatidir.

Maktubning eng og‘ir joyi shundaki, u “men o‘limdan qo‘rqmayman, men siz va aka-ukalarimni qayta ko‘ra olmasligimdan qo‘rqaman”, deganida. Maktubni o‘qigan odam urushga boshqacha qaray boshlaydi. Chunki bu yerda urush raqamlar orqali emas, inson qalbi orqali ko‘rsatilgan. 71 nafar o‘quvchi-askarning har biri kimningdir farzandi, kimningdir akasi, kimningdir sinfdoshi edi. Ular uchun urush katta siyosiy bahs emas, yashash yoki o‘lish masalasi edi.

Li U Gyunning xati bizga tinchlikning qadrini eslatadi. Tinchlik – bolalar maktabda o‘qishi, onalar farzandini xavotirsiz bag‘riga bosishi, insonlar bir til va bir qon sabab bir-biriga dushman bo‘lib qolmasligi uchun kerak.

Xatdagi “Onajon, nega biz urushishimiz kerak?” degan savol o‘ta og‘riqli. Bu savol faqat 1950-yildagi Koreya urushiga emas, butun insoniyat tarixiga berilgan savoldek jaranglab turibdi.

Li U Gyunning maktubi Janubiy Koreya tarixida faqat bir o‘quvchi-askarning xotirasi emas, u urushning inson taqdiriga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadigan tirik guvohlikdir.


Afsuski, u urushdan omon qaytmasa-da, maktubi bor haqiqatni ayon qildi. O‘quvchi-askar qoniga bo‘yalgan ushbu maktub koreys xalqining xotirasida, urush qurbonlari haqidagi tarixiy esdaliklarda va tinchlik qadrini anglagan har bir inson qalbida yashab kelmoqda.

Abduhamid XUDOYBERDIYEV,
jurnalist



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovni eslab



MAYDANAKDA TUG‘ILGAN SHE’R

Elimizning ardoqli shoiri O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning jozibador she’riyati muxlislarining allaqachon qalbidan joy olgani yangilik emas. Kunlarning birida shoir haqida qamashilik adabiyot muxlisi qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi Abdujabbor Rasulov bilan suhbatlashdim.

– 1991-yilning yozi edi. Tuman hokimligida ishlardim. Bir kuni qo‘ng‘iroq bo‘ldi. “Toshkentdan mehmonlar boradi, kutib olinglar”, deyishdi.

Ertalab mehmonlarni kutib oldik. Ular otashnafas shoirlar Abdulla Oripov bilan Muhammad Yusuf ekan.

O‘sha paytlari sevimli shoirimiz tavalludining 50 yilligini nishonlashga kirishilgan bo‘lib, Jonbo‘zsoydagi kutubxonaga shoir nomini berish tadorigi boshlangandi. Biz shoirlarni rejalarimiz bilan tanishtirdik.

Shunda Abdulla aka: “Bilasizmi, Maydanak rasadxonasi haqida ko‘p eshitganman, lekin borishga fursat bo‘lmagandi, shu bois o‘sha joyga borsak...” dedi.

Tumanimiz rahbari rahmatli Rashid Bozorov menga: “Siz mehmonlarga hamroh bo‘lib, ko‘rsatasiz”, deb topshiriq berdi.

Yo‘lga chiqdik va Langar qishlog‘ida bizni o‘sha paytdagi xo‘jalik rahbarlari Eshmurod Ziyatov va Rahmatilla Turopov kutib oldi. Hol-ahvol so‘rashgach, tog‘ning ilonizi yo‘llaridan mashinamiz yuqoriga o‘rlay boshladi. Yo‘l-yo‘lakay Kon qishlog‘idagi qadimgi Boyvuchcha tuz g‘ori bilan tanishgach, yana yo‘lga tushdik. Poytaxtdan kelgan ikki nomdor shoirni o‘ngirlardagi ko‘m-ko‘k archazorlar o‘ziga maftun etdi chog‘i, mashinani to‘xtatib, ajoyib tabiat mo‘jizasini tomosha qilarkan, Abdulla aka bizlarga yuzlanib dedi:

– Bizda ham Shveysariya tabiatidan qolishmaydigan joylar bor ekan-ku, bu joylarda ham dam olish maskanlari qurilsa, yaxshi bo‘lar edi...

***

Yo‘limizda davom etib, Maydanak tomon borar ekanmiz, 1970-yilda dengiz sathidan 2 700 metr balandlikda Maydanak rasadxonasi barpo etilgani va uning Kanar, Gavay orollari va Chilining Atakama cho‘lidagi, shuningdek Yaponiyadagi rasadxonalar bilan bemalol raqobatlashishi haqida suhbatlashdik.

Nihoyat, kun yarmidan o‘tganda, Maydanak ilmiy tadqiqot markaziga yetib keldik. Bizni kutib olgan ilmiy xodimlar rasadxona bilan tanishtirib, ulkan robot – teleskop yoniga Abdulla akani chaqirarkan, shoirning osmon jismlari haqidagi savollariga burro-burro javob berdi.

Men o‘shanda atoqli shoirimizning koinot va sayyoralar haqida bunchalar ko‘p ma’lumotlarni bilishidan hayratga tushdim va agar Abdulla aka shoir bo‘lmaganida, balki yetuk munajjim bo‘larmidi, degan fikr xayolimdan o‘tdi.

Shu payt g‘aroyib hodisa ro‘y berdi. Tepamizga allaqayerdan bulut kelib, yomg‘ir sepalab o‘tdi. Yozning qoq chillasidagi bu hodisadan biz hayron qoldik. Abdulla aka esa hamrohi Muhammad Yusufga qarab dedi:

– Hoy, vodiylik shoir, buni eslab qol, bu makonni Qashqadaryo deyishadi, kerak bo‘lsa, qor ham yog‘adi, bu haqiqiy mo‘jiza!

Biz esa poytaxtdan kelgan aziz mehmonlarning ust-boshi bemavrid yog‘gan yomg‘irdan ozgina ivib qolganidan xijolatga tushdik...

Ortga qaytar ekanmiz, yo‘limizda qo‘ylar suruvi paydo bo‘ldi. Cho‘ponni chaqirib, tezroq yo‘lni ochishini aytdik va mehmonlar bilan tanishtirdik. Keksa cho‘pon xursand bo‘lib, Abdulla akaning oyog‘i tagiga bir qo‘yni olib keib, bo‘g‘izladi va shoirga uzoq umr tilab, duo qildi.

Abdulla akaning bundan kayfiyati yanada ko‘tarildi.

***

Qorong‘i tusha boshlagan edi. Men Abdulla akaga tunda yo‘lda yurmay, Dara qishlog‘ida qolishni va ertalab Qamashiga qaytishni taklif qildim. Bu taklif hammaga ma’qul tushdi. Chunki kunbo‘yi yo‘lda yurganimiz bois barchamizda charchoq alomatlari sezilib turardi. Hamrohimiz Rahmatilla Turopovning uyida qo‘noq bo‘ldik. Mehmonxonada gurungimiz yanada qizidi. Abdulla aka o‘zining Amerika, Hindiston, Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarga qilgan safarlaridagi taassurotlarini so‘zlab berdi va birdan xayolga cho‘mib, yondaftariga allanimalarni qoralashga tushdi. Ertasiga Jonbo‘zsoydagi qishloq ahli bilan o‘tkazilgan uchrashuvda shoirning ilk bora “Maydanak” nomli she’ri nazm muxlislari e’tiboriga havola etildi.

MAYDANAK

Osmonga uchmoqni orzu qilasan,
Avvalo zaminga bo‘la olgin el.
Fazogir emassan, buni bilasan,
Yaxshisi, og‘ayni, Maydanakka kel.
Bunda koinotning haramlariga
Sen ham durbin bilan solgaysan nazar.
Milliard chaqirimmi, undan nariga,
Xohlasang, birzumda yo‘llaysan xabar.
Ana, tong yulduzi Zuhro nurafshon
Dur taqib olibdi, oppoq bo‘yniga.
Oymomo poylaydi tunbo‘yi giryon,
Kirib ketmasin, deb yerning qo‘yniga.
Somonchi yo‘lida g‘aflatda qolib,
Molidan ayrilgan Mirrixga boqchi.
Bir suruv echkini oldiga solib,
Changitib ketmoqda yetti qaroqchi.
Yulduzlar hayoti, g‘oyatda qiziq.
Yasharlar samoviy parvozni ko‘zlab.
Biri kuylayverib ketgandir qizib,
Biri tinglayverib qolgandir muzlab.
Ana, kometalar, baayni uchqun,
Balki, do‘st axtarib kezishar ular.
Balki, izlaganin topishar bir kun,
Balki, biror shahar ustiga qular.
Endi jiddiy turib, bu yonga qara,
Falakda ko‘rinar ikkita oqqand.
Biri “O‘zbekiston” degan sayyora,
Birovining esa nomi “Samarqand”.
Mana shu tomosha yetar sen uchun,
Agar mag‘iz bo‘lsang, olam bir danak.
His et Ulug‘bekni, xayolning kuchin,
Parvoz maydonidir, senga Maydanak!

Yana bir gap. Atoqli shoirimiz bashorat qilganidek, bugun Maydanakda yirik loyihalar asosida 20 ta zamonaviy dam olish maskani va ko‘plab kapsula uylar barpo etilmoqda. Infratuzilma yangilanib, vertolyot qo‘nish maydoni, yo‘l va yo‘laklar, restoran qurilishi nihoyasiga yetish arafasida. Bu joy nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyohlar uchun ham mo‘ljallangan bo‘lib, unda zamonaviy dam olish, ilmiy tadqiqot va ekoturizm uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



Suratlar sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Ogohlik

KIBERMAKONDAGI TAHDIDLARDAN HIMOYA BOR(MI?)



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Davlat chegarasi qayerdan boshlanadi? Ko‘z oldimizga odatda sarhadlar, chegara postlari, baland tog‘lar yoki daryolar keladi. Ammo XXI asrda xavfsizlik tushunchasi ham, chegara tushunchasi ham o‘zgarib bormoqda. Bugun mamlakat hududiga kirib kelish uchun har doim ham chegarani buzib o‘tish shart emas. Ba’zan tahdid ekran ortida paydo bo‘ladi, birgina xabar orqali minglab odamlarning ongiga yetib boradi.

Insoniyat hayotiga kirib kelgan yangi makon – kibermakon ana shunday ulkan imkoniyatlar bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqardi. Bu makonda masofa yo‘q. Shuning uchun ham birgina soxta xabar jamoatchilik kayfiyatiga ta’sir qilishi, shaxsiy ma’lumotlarning ehtiyotsizlik bilan tarqatilishi esa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois bugun Vatan xavfsizligi haqida so‘z yuritganda, uni faqat jismoniy himoya vositalari bilan emas, balki tafakkur va axborotga mas’uliyatli munosabat bilan ham bog‘lash zarur.

Vatanparvarlik bugun faqat sarhadlarda yurt hududini qo‘riqlash emas, balki uning sha’ni, qadriyatlari, tinchligi va axborot xavfsizligini asrash hamdir. Bu jihatlar Vatanga sadoqatning muhim ko‘rinishidir. Zero chegara davlat hududining boshlanishi bo‘lishi mumkin, ammo Vatanga bo‘lgan sadoqatning chegarasi yo‘q.

E’tibor beradigan bo‘lsak, bugun yosh avlod hayotida ham raqamli muhitning o‘rni tobora ortib bormoqda. Bugun qo‘lida smartfon tutgan yigit-qiz bir necha soniya ichida dunyoning istalgan nuqtasidan axborot olish imkoniga ega. Ammo har qanday axborot ham haqiqat emas. Internetdagi har bir xabar dalil emas, har bir surat haqiqat emas, har bir shov-shuvli ma’lumot esa ishonchli manba emas. Demak, axborotga ega bo‘lishning o‘zi kifoya qilmaydi, eng muhimi, uni to‘g‘ri anglash va saralay olishdir.

Shu ma’noda zamonaviy insonning eng muhim himoya vositalaridan biri tanqidiy tafakkur sanaladi. Axborotga ko‘r-ko‘rona ishonmaslik – befarqlik emas, aksincha hushyorlik. Shubhali xabarni tekshirmasdan tarqatmaslik – qo‘rqoqlik emas, mas’uliyat. Manbaning ishonchliligini baholay bilish esa bugungi raqamli muhitda zarur ko‘nikmaga aylandi.

Zamonaviy tahdidlarning ayrimlari ekran orqali kirib keladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda turli mojarolarda axborot makoni, kibyerhudud va jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatish usullari tobora kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Mutaxassislar bunday yondashuvlarning muhim qismini gibrid urush tushunchasi bilan izohlaydi.

Gibrid urush – raqibni zaiflashtirish va strategik maqsadlarga erishish uchun an’anaviy harbiy vositalar bilan bir qatorda siyosiy, iqtisodiy, axborot va kibervositalardan uyg‘un ravishda foydalaniladigan murakkab qarama-qarshilik shakli. Bunda jang maydoni faqat front bilan cheklanmaydi. Siyosat, iqtisodiyot, axborot makoni, kiberhudud va eng muhimi, jamoatchilik ongi ham ta’sir obyektiga aylanishi mumkin.

Bunday sharoitda axborot xurujlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda tarqatiladigan soxta xabarlar, manipulyativ materiallar, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan soxta audio va videolar odamlarni chalg‘itishi, qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini yuzaga keltirishi mumkin. Ularning xavfi shundaki, axborot qanchalik tez tarqalsa, uning ta’sir doirasi ham shunchalik kengayadi. Axborot xurujlarining maqsadi faqat yolg‘on ma’lumot tarqatish emas. Ular orqali jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish, odamlar o‘rtasida ishonchsizlik va qarama-qarshilikni kuchaytirish, davlat institutlariga ishonchni susaytirish yoki jamiyatda xavotir va sarosima kayfiyatini yuzaga keltirish mumkin. Shu sababli har qanday shubhali ma’lumotni tanqidiy baholash va ishonchli manbalar orqali tekshirish axborot xavfsizligining muhim shartidir.

Bu jarayonda yoshlar masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. Chunki dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasi shakllanayotgan avlod axborot oqimining eng faol iste’molchisidir. Bugun mafkuraviy ta’sirlar doim ham ochiq da’vat yoki keskin shiorlar shaklida namoyon bo‘lmaydi. Ular ba’zan ko‘ngilochar kontent, qisqa videolar, turli trendlar, blogerlik materiallari yoki hissiyotga ta’sir qiluvchi postlar orqali singdiriladi. Bunday sharoitda yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish faqat taqiq va cheklovlar bilan hal etilmaydi. Eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik va axborotni saralash ko‘nikmasini shakllantirish zarur. O‘z tarixi, tili, madaniyati va milliy qadriyatlarini chuqur anglagan, mustaqil fikrlaydigan yosh turli manipulyatsiyalarga nisbatan ancha barqaror bo‘ladi. Shu ma’noda yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan har qanday buzg‘unchi axborot xuruji jamiyatning kelajagiga qaratilgan tahdiddir.

Kiberxavfsizlik masalasi esa faqat shaxsiy akkaunt yoki kompyuterni himoya qilishdan iborat emas. Bugun energetika, transport, bank-moliya tizimi, davlat boshqaruvi kabi strategik sohalar ham raqamli texnologiyalarga tobora ko‘proq bog‘lanmoqda. Shuning uchun muhim axborot infratuzilmalarini himoya qilish milliy xavfsizlikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Kiberhujumlarni oldindan aniqlash, ularga tezkor javob berish va tizimlarning uzluksiz ishlashini ta’minlash davlat barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar rivojlangan sari kiberxavfsizlikka yondashuvlar ham takomillashmoqda. Sun’iy intellekt va zamonaviy algoritmlar orqali kibertahdidlarni erta aniqlash, muhim infratuzilmalarda muntazam kiber mashg‘ulotlar o‘tkazish, mutaxassislarning tayyorgarligini oshirish kabi choralar raqamli barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq texnik vositalarning o‘zi yetarli emas. Kiberxavfsizlikning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri – bu insonning o‘zi. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, shubhali havolalarni ochmaslik, noma’lum manbalardan kelgan xabarlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, axborotni tekshirmasdan tarqatmaslik kabi oddiy qoidalar katta xavflarning oldini olishi mumkin.

Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz sarhadlarini ishonchli himoya qilmoqda. Kibermakonda esa har bir fuqaroning mas’uliyati muhim. Ijtimoiy tarmoqda tarqalayotgan har bir xabar va ulashilayotgan har bir ma’lumot muayyan ta’sirga ega.

Shuning uchun ham bugun har birimiz o‘zimizga oddiy, ammo muhim savolni berishimiz kerak: “Bu axborot qayerdan keldi, qanchalik ishonchli va uni tarqatishdan kim manfaatdor?” Ana shunda tuzoqlardan o‘zimiz va yaqinlarimiz xavfsizligini asrashimiz mumkin.

Zero XXI asrda Vatan xavfsizligi faqat sarhadlarda emas, ongimizda ham himoya qilinadi. Raqamli makonda hushyorlik, axborotda mas’uliyat, fikrda mustaqillik – bugungi vatanparvarlikning muhim belgilaridan. Kelayotgan axborotga befarqlik tahdidni kuchaytirishi mumkin, bilim va tafakkur esa unga qarshi ishonchli qalqon. Shunday ekan, kibermakonda xavfsizlikni ta’minlash faqat davlat idoralarining emas, balki har bir fuqaroning chin farzandlik burchidir.

Podpolkovnik
G‘ofur BOZOROV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy aviatsiya instituti sikl boshlig‘i



Hikoya

HARBIY USTOZ



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Elmurod aka sovg‘a-salomlar bilan xonadoniga kirib kelganida, uni bir uy yaqinlari kutib oladi, deb o‘ylamagandi. Harbiy sohadan iste’foga chiqqan ofitserning kayfiyati ko‘tarildi.

– Kelinglar, mehmonlar, kelinglar, – jigarlari bilan bir-bir salomlashishga tutindi u.

– Pensiya yoshiga yetganingiz muborak bo‘lsin, akajon, – tabriklay ketdi singillari Marg‘uba va Marhabo.

– Podpolkovnik Otajonov, bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor... – hazil aralash qutlovni davom ettirdi ukasi Jamshid.

– Harbiylar erta pensiyaga chiqishadi-da, Elmurodni qaranglar, qirchillagan yigitday, – ukasiga quchog‘ini ochdi Bekmurod aka. – Hali el-yurtga ko‘p foydasi tegadi uning...

Yaqinlaring davrasidagi samimiy suhbatlar boshqacha-da, yayrab ketadi odam. Elmurod aka jigarlari bilan uzoq chaqchaqlashib o‘tirdi. Ular uy-uylariga tarqalganida tun yarimlab qolgandi. Shunday bo‘lsa-da, Elmurod aka uxlashga shoshilmasdi, to‘g‘rirog‘i ko‘ziga uyqu kelmasdi. O‘zgacha tuyg‘ular girdobida divanga yastanib, uzoq o‘tirdi.

“Nahot ertadan xizmatga bormasam. Endi barvaqt turish, harbiy libosda qadni tik tutib xizmatga otlanish yo‘q, – xayolidan o‘tkazdi u. – Akam aytganidek, hali kuch-g‘ayratim bor, o‘zimga mos biror ish topilib qolar”.

– Dadasi, dam olsangiz-chi, xayol surib o‘tirishingizni qarang, charchamadingizmi? – Erini mehribonchilik ila tergagan bo‘ldi Vasila opa.

– Rosa xizmat qildingiz, ertadan uyda qolaman, deb tashvishlanmasangiz ham bo‘ladi.

– Sendan hech narsani yashirib bo‘lmaydi, Vasila. Dilimdagi hamma narsani uqiy olasan.

– Albatta, o‘ttiz besh yildan buyon birga yashayman-u, bilmaymanmi. Siz ikki-uch oy dam oling, keyin o‘zingizga mos biror joydan ish topilar. Erkak ko‘cha odami deb shuni aytishar ekan-da. Hozirdan uyda qolishni istamayapsiz.

– To‘g‘ri aytasan, onasi, buyog‘ini vaqt ko‘rsatadi. Zahmatli xizmatdan so‘ng dam olish ham kerak...

***

– Onasi, qayerdasan? – Ko‘chadan shoshilib kirib kelgan Elmurod akaning kayfiyati ko‘tarinki edi.

– Uydamisan?

– Qayerda bo‘lardim, uydaman. – Oshxonadan chiqib keldi Vasila opa. – Tushlik tayyorlayotgandim. O‘g‘illaringiz ham o‘zingizga o‘xshab harbiy sohani tanladi. Ikkita kelin oldim, ikkisi ham uzoqda. Yangi kelin bo‘lib, hamma ishni o‘zim qilyapman-da.

– Ha, omon bo‘l, boringga shukr! O‘g‘il-qizlarimiz oldimizda bo‘lmasa ham, oilalari bilan tinch, el xizmatida. Hali keksayib qolganimiz yo‘q, o‘zimizni o‘zimiz uddalaymiz.

– To‘g‘ri aytasiz, bolalar bilan birga yashaydigan kunlar ham kelar. Kayfiyatingiz ko‘tarinki, yaxshilikka bo‘lsin, dadasi?

– Suyunchi ber, bir emas ikki joydan ishga taklif qilishyapti.

– Yo‘g‘ee, darrov ishga chiqib ketasizmi, bir oy ham dam olmadingiz-ku. Birga sayohatlarga chiqarmidik degandim.

– Hammasi yaxshi bo‘ladi, sayohatlarga ham chiqamiz. Ammo hozir uyda qolgim yo‘q, ishlamoqchiman. El ichida bo‘lganga nima yetsin.

– Qanday ish ekan?

– Biri mahalla fuqarolar kengashida ishlashga, ikkinchisi, maktabda o‘qituvchilikka.

– Mahallada ishlashga rozi bo‘lgandirsiz? Maoshi ham yaxshi, maktabdan ko‘ra tinch.

– Yo‘q, maktabda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlag‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchiligini tanladim.

– Dadasi, nega bir og‘iz men bilan maslahat qilmadingiz? – ranjigan bo‘ldi Vasila opa. – Maktabda ishlaganman, bilaman, hozirgi bolalar avvalgilardek emas, qiynalasiz.

– Qiyinchiliksiz ishning o‘zi yo‘q. Harbiy malakamning yoshlarga mos tomonlarini o‘rgataman...

Ko‘p o‘tmay, Elmurod aka maktabda o‘z faoliyatini boshladi va harbiy ustoz degan nom oldi.

***

– Najmiddinov, yana nima sababdan kech qolib yuribsan, – deya o‘quvchiga tanbeh bera ketdi Elmurod aka. – “Vatan mardlari” guruhiga bosh bo‘la turib, uchinchi marotaba darsga kech qolib kelyapsan.

– Uzr, ustoz, shunday bo‘lib qoldi.

– O‘tgan gal ham xuddi shunday deganding. respublika miqyosidagi katta tanlov oldida turibmiz. Ikki haftadan so‘ng kuchli guruhlar bilan bellashamiz. Sen bo‘lsang! Mayli, joyingga o‘tir, darsdan keyin gaplashamiz.

– Qani gapir-chi, Rasul, kech qolayotganing sababini eshitaman, – darsdan so‘ng o‘quvchisi bilan dildan suhbatlashishni istadi Elmurod aka. – Tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritib respublikaga chiqdik. Bu yutuqlarda sening katta hissang bor. Oldimizda shunday katta bellashuv turganida, nega endi, loqayd bo‘lib qolding?! Darsga kech kelasan, ketishga shoshilib turasan. Buning sababi nima?

– Ustoz, ayb menda, bu xatoni qayta takrorlamayman. Vaqtdan unumli foydalanishga harakat qilaman.

– Tushunmadim, qanday vaqt haqida gapiryapsan, oilangga yordam berish uchun biror joyda ishlayapsanmi?!

– Yo‘q... faqat... mahallamizda yolg‘iz yashaydigan Madamin aka degan keksa otaxon bor. Kuch-quvvati ketib, keyingi vaqtlarda sekin harakatlanadigan bo‘lib qolgan. Shunga har kuni kirib biroz qaralashaman.

– Nima mahalla yordam bermayaptimi? Balki, qarindosh-urug‘lari bordir?

– Bilishimcha, qarindoshlari yo‘q, yolg‘iz o‘g‘li dom-daraksiz yo‘qolgan ekan. Meni o‘g‘liga o‘xshatib maktabdan qaytishimni kutib turadi, gaplashishni istaydi. Ba’zida uy ishlariga qarashib turaman. Mahalla ham yordam beradi. Keksalar uyiga joylashtirmoqchi bo‘lishgandi, istamadi. Kecha-yu kunduz o‘g‘lining yo‘liga ko‘z tutib o‘tiradi.

– Shunday degin, – o‘ylanib qoldi Elmurod aka. – Unda barchamiz birga o‘sha otaxonni ko‘rgani boramiz. Balki, navbati bilan xabar olib turish rejasini tuzarmiz. Biroq tanlovga tayyorgarlikni pasaytirmasligimiz kerak, Rasul. Respublikada birinchi o‘rinni olishimiz shart! Tushunarlimi, Najmiddinov!

– Xuddi shunday, ustoz! – ko‘tarinki kayfiyatda, javob qaytardi Rasul. – Aytganingizdek, ertadan tayyorgarlikni kuchaytiramiz...

Harbiy ustoz so‘zida turdi. Ertasi kuni tayyorgarlikdan so‘ng o‘quvchilar bilan otaxonni ko‘rgani bordi.

Ixchamgina qarovsiz hovli, nuray boshlagan imorat kimsasiz xonadonni eslatadi. Madamin aka ularni ko‘rib, xursand bo‘lib ketdi. O‘quvchilar ustozlari boshchiligida hovlini tartibga keltirdi. Elmurod aka xonadon sohibi bilan tanishuv asnosida stol ustidagi rasmga e’tibor qaratdi. Yigirma besh yoshlardagi kulib turgan yigit Madamin akaga juda o‘xshab ketardi. Qizig‘i, bu yigit Elmurod akaga tanish ko‘rindi.

“Bu yigitni qayerda ko‘rgan bo‘lishim mumkin, – o‘ylay boshladi u. –To‘xta, bu ukam Jamshid bilan institutda birga o‘qigan, do‘st tutingan Sadriddin-ku! Bir necha marta uylarida mehmon ham bo‘lgan. Oliygohni bitirib, endigina yaxshi vazifada ish boshlagan yigit, daf’atan yo‘qolib qolgandi. Ukasi dom-daraksiz ketgan do‘stini ancha payt surishtirib yurganidan xabari bor. Qarangki, bir hafta avval shu haqda gaplashgandi. Ya’ni uni tirik ekani, o‘n besh yildan buyon Rossiyaning qaysidir shahrida yashab yurganini, xotirasini yo‘qotganini aytgandi. Demak, uning dushmanlari bo‘lgan. Buning tagiga yetish kerak”, qat’iy xulosaga keldi Elmurod aka.

– Madamin aka, o‘g‘lingiz juda o‘zingizga o‘xshar ekan, oti nima? – taxmini tasdig‘ini topishi uchun so‘radi undan.

– Sadriddin, – ovozi qaltirab chiqdi otaxonning. – Bolam ertalab ishga chiqib ketgancha, bag‘rimga qaytmadi. O‘n besh yilki yo‘liga ko‘z tutaman.

– O‘g‘lingiz bilan tez orada ko‘rishasiz, umidingizni uzmang, aka. Ungacha mana bu olovqalb yigitchalar bilan xonadoningizda tez-tez mehmon bo‘lib turamiz. To‘g‘rimi, Vatan mardlari.

– Xuddi shunday! – harbiy ustozlariga harbiychasiga javob qaytardi o‘quvchilar.

– Ko‘nglimni ko‘targanlaring uchun hammalaringga katta rahmat...

Elmurod aka fursat o‘tkazmay, izquvarlikka tushib ketdi. Darhol ukasi Jamshid bilan ko‘rishdi. Sadriddin qayerda, qaysi shaharda, u haqdagi ma’lumotni kimdan olgan?.. Uni qanday topsa bo‘ladi? Ko‘p o‘tmay, Jamshid akasining sa’y-harakati bilan Sadriddin tomon yo‘lga otlandi

***

Iste’fodagi podpolkovnik Elmurod Otajonov boshchiligidagi “Vatan mardlari” otryadi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi respublika tanlovida mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Quvonarli yana bir yangilik Elmurod aka sabab Madamin akaning o‘g‘li bag‘riga qaytdi. Oylar o‘tib, ushbu xonadonda “To‘ylar muborak” sadosi yangradi. Harbiy ustoz esa hamon el xizmatida.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Harbiy okruglarda

Hushyorlik – davr talabi



Termiz shahridagi Yoshlar markazida Janubiy-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz garnizonida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari hamda ularning oila a’zolari uchun kibersavodxonlik bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazildi.

Unda mas’ul ofitserlar, Termiz harbiy prokuraturasi, viloyatdagi kuch tuzilmalari vakillari hamda bank xodimlari ishtirok etib, zamonaviy kibertahdidlar, kiberhujumlar va kiberjinoyatlardan himoyalanish bo‘yicha tushunchalar berildi. Tadbir davomida ishtirokchilarga shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, shubhali havolalar va xabarlarga ishonmaslik, zararli dasturlardan foydalanmaslik, bank kartalariga oid ma’lumotlarni begona shaxslarga oshkor qilmaslik hamda internetdan xavfsiz foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar yetkazildi.

Aytish kerakki, ushbu tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarida raqamli muhitda hushyorlikni oshirish hamda kiberxavflardan himoyalanish bo‘yicha zarur bilimlarni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

III darajali serjant
Akbar Ahmedov
Termiz gornizoni

Davra suhbati

HUQUQIY SAVODXONLIK — mustahkam intizom asosi

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi boshqaruv apparatida harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan davra suhbati tashkil etildi.





Videokonferens-aloqa tarzida o‘tkazilgan tadbirda hamkor tashkilot vakillari hamda joylardan soha mutaxassislari ishtirok etdi.

Tadbirda harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarini yuksaltirish, amaldagi qonunchilik talablarini to‘g‘ri anglash va xizmat faoliyatida ularga qat’iy rioya qilish masalalari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritildi.

Shuningdek, soha rivoji uchun qabul qilinayotgan qonunlar va ularning mazmun mohiyati, ahamiyati atroflicha tushuntirildi. Qolaversa, yo‘l transport hodisalarini oldini olish masalalari yuzasidan ham misollar keltirib o‘tildi. Tadbirda ta’kidlanganidek, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Axborot texnologiyalari va aloqa harbiy instituti hamda Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida harbiy xizmatchilar uchun tashkil etilgan masofaviy tahsil olish borasida qilinayotgan ishlar yuzasidan ma’lumotlar berildi.

Samimiy va ochiq muloqot tarzida kechgan davra suhbatida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislar tomonidan javob oldi

TOQQQ matbuot xizmati

Yangi qadam

Yangi ilmiy daraja va yangi maqsad









Markaziy harbiy okrug qo‘mondonligi, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda Oriental universiteti o‘rtasidagi hamkorlik memorandumi doirasida harbiy xizmatchilarning bilim va kasbiy salohiyatini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur hamkorlik asosida tahsil olgan harbiy xizmatchilar magistratura bosqichini muvaffaqiyatli tamomlab, ushbu yo‘nalishning ilk bitiruvchilari sifatida e’tirof etildi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar bitiruvchilarni bu ilmiy daraja keyingi muvaffaqiyat uchun muhim yo‘l ochishini, bu yerda o‘rganilgan bilim va orttirilgan tajriba kelgusida milliy armiya saflaridagi harbiy xizmatchilarni yanada sadoqatli, mard va vatanparvar farzand o‘laroq, xizmat o‘tashlarida qo‘llashlariga ishonch bildirildi.

Haqiqatan ham bu qat’iyat va bilim birlashsa, ko‘zlangan marra tezroq zabt etiladi. Bugun katta maqsadlar yo‘lida tahsil olgan bitiruvchilar esa ustozlar ko‘rsatgan va o‘rgatgan ko‘nikmani o‘zlari uchun dasturilamal etib belgilab oladi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

"Vatanparvar" tashkilotida

O‘zbekiston ochiq chempionatida
G‘OLIBLAR ANIQLANDI



Joriy yilning 12–13-sentabr kunlari Toshkent shahridagi "Rohat" kartodromida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning karting turi bo‘yicha O‘zbekiston ochiq chempionatining uchinchi bosqich musobaqasi o‘tkazildi.



Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 60 dan ortiq sportchi turli masofalarda "Mikro", "Mini", "Super mini", "125 KADET", "KZ", "KF-OK", "Patriot" *(T4)* va "Patriot" *(U)* sinflarida sport kartlarida o‘zaro bellashdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan bahslar quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"Mini" sinfida:

1-o‘rin: Kirill Konyuxov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Azizmurod Muhammadjonov *(Namangan v.);*
3-o‘rin: Jasmina Tohirova *(Qashqadaryo v.).*

"Mikro" sinfida:

1-o‘rin: Muhammadamin Azizov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Salax Urunov *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Imronbek Odiljonov *(Namangan v.).*

"125 KADET" sinfida:

1-o‘rin: Daniil Shevsov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Shohjahon Komilov *(Namangan v.);*
3-o‘rin: Aleksandra Krilova *(Toshkent sh.).*

"Super mini" sinfida:

1-o‘rin: Matvey Mochalkin *(Sirdaryo v.);*
2-o‘rin: Rustam Hamrayev *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Nurmuhammad Isroilov *(Namangan v.).*

"KF-OK" sinfida:

1-o‘rin: Artyom Usheka *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Ismoil Saidov *(Farg‘ona v.);*
3-o‘rin: Konstantin Nadimov *(Toshkent v.).*

"KZ" sinfida:

1-o‘rin: Ayder Haydarov *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Amir Hamrayev *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Kristina Shipkova *(Toshkent sh.).*

"Patriot" (T4) sinfida:

1-o‘rin: Daniil Alimov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Ivan Barishev *(Sirdaryo v.);*
3-o‘rin: Kristina Shipkova *(Toshkent sh.).*

"Patriot" (U) sinfida:

1-o‘rin: Jobir Rahmatullayev *(Namangan v.);*
2-o‘rin: Aleksandra Krilova *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Aleksandr Silchenko *(Namangan v.).*

Jamoa hisobida:

1-o‘rin: Toshkent shahri;
2-o‘rin: Toshkent viloyati;
3-o‘rin: Namangan viloyati jamoalari.

Musobaqalarning yopilish marosimida g‘oliblik va yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan sportchilar O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

XALQARO "HAVO JANGI"
musobaqasida ikkinchi o‘rin



Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyatida aviamodel sportining "Havo jangi" yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro musobaqa bo‘lib o‘tdi.



Bellashuvda Rossiya, Belorussiya, O‘zbekiston va Qirg‘izistondan borgan 80 dan ortiq sportchi o‘zlari yasagan samolyot modellari bilan g‘oliblik uchun kurash olib bordi.

Ahamiyatlisi, ushbu xalqaro musobaqada O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining aviamodel sportchilaridan iborat terma jamoa ikkinchi o‘rinni egallab, mamlakatimiz sharafini munosib himoya qildi. Birinchi o‘rin Rossiya, uchinchi o‘rin esa Belorussiya jamoalariga nasib etdi.

Yong‘in xavfsizligi



HAR KIM O‘Z-O‘ZINI ASRASHGA MAS'ULDIR

Bugun hayotimizda turli yumushlarimizni osonlashtirishga xizmat qilayotgan texnika vositalari, tabiiy boyliklar talaygina. Ha, aynan ularning ko‘magi bilan vaqtimiz ancha tejalib, mehnatimiz unumdorligi ortib bormoqda. Biroq ular qulaylik yaratish bilan birga salbiy oqibatlarga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, kundalik turmushimizda keng foydalaniladigan tabiiy gaz ana shunday vositalardan biridir. U xonadonlarimizni isitib, taom tayyorlashda va boshqa maishiy ehtiyojlarimizda qo‘l keladi. Ammo undan foydalanishda yo‘l qo‘yilgan kichik bir e'tiborsizlik ham jiddiy sabablarga olib kelishi mumkin.

Kuz-qish faslida esa bunday xavf-xatarlar yanada ortadi. Xonadonlarda gaz plitalaridan isitish maqsadida foydalanish, mo‘rilarining o‘z vaqtida tozalanmasligi natijasida is gazining xonaga tarqalish xavfini tug‘diradi. Achinarlisi, ana shunday holatlar oqibatida insonlar hayoti o‘lim bilan yakunlanmoqda. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: yuqoridagi kabi ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Birinchi navbatda, gaz va elektr jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish lozim. Xonadoningizda mavjud bo‘lgan gaz jihozlarini qarovsiz qoldirmaslik, ularni yosh bolalarga ishonmaslik kerak. Qolaversa, shunga o‘xshash vaziyatlar yuzaga kelsa, ayni soha mutaxassislarIni yordamga chaqirish lozim. Qisqasi, har kim o‘z-o‘zini asrashi, yaqinlari xavfsizligini ta'minlashga mas'ul. Ana shunda umumiy maqsadimiz – taraqqiyot sari dadil ildamlayotgan mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo‘shamiz.

Mayor Shuhrat ARAKULOV,
Toshkent garnizoni yong‘in nazorati inspeksiyasi boshlig‘i

Sog‘lom turmush tarzi

Inson organizmi murakkab va nozik tizim. Unda kechayotgan har bir jarayon bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Biz esa ko‘pincha tanamiz berayotgan signallarga e’tiborsiz qaraymiz. Holbuki, doimiy charchoq, sochning to‘kilishi, tirnoqlarning mo‘rtlashishi, teridagi o‘zgarishlar, mushaklarning tortishishi yoki qo‘l-oyoqlarning uvushishi kabi belgilar ba’zan organizmda ayrim vitamin va minerallar yetishmayotganidan darak berishi mumkin.

VITAMINLAR
HAYOT UCHUN MUHIM



NEGA SOCH TO‘KILADI?

Sochlaringiz avvalgidek jilo bermay, quruqlashib, mo‘rtlashib, odatdagidan ko‘proq to‘kilayotganini sezyapsizmi? Buni e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. Ayrim hollarda biotin, ya’ni B_7 vitamini yetishmasligi soch va tirnoqlar holatiga ta’sir qilishi mumkin. Biotin organizmda yog‘ kislotalari va aminokislotalar almashinuvi kabi muhim jarayonlarda ishtirok etadi. Biotinni tuxum, yong‘oqlar, dukkakli mahsulotlar, ayrim sabzavot va mevalar tarkibidan olish mumkin.

MUSHAKLAR TORTISHISHI

Mushaklarning, ayniqsa oyoqlardagi mushaklarning tez-tez tortishishi ham ko‘pchilikni bezovta qiladi. Bunday holat ba’zan organizmda magniy, kaliy yoki kalsiy muvozanati buzilganda kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, suvsizlanish, kuchli jismoniy yuklama, uzoq vaqt bir holatda qolish, ayrim dorilarni qabul qilish va boshqa sabablar ham mushaklar tortishishiga olib keladi.

Shuning uchun bunday belgilarda faqat tabletka yoki qo‘shimchalarga tayanish emas, balki kundalik ovqatlanish va suyuqlik qabul qilish tartibiga ham e’tibor berish kerak. Yong‘oqlar, dukkakli mahsulotlar, ko‘katlar, sabzavotlar, mevalar, sut mahsulotlari organizmni turli minerallar bilan ta’minlashga yordam beradi. Yana banan, qovoq, ko‘katlarni ratsionga muntazam qo‘shish ham foydali.


TERIDAGI TOSHMALAR

Teri ham organizmdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi muhim “ko‘zgu” hisoblanadi. Yuzda toshmalar, teri qurishi, yallig‘lanish yoki boshqa o‘zgarishlar paydo bo‘lganda, ayrim vitamin va mikroelementlar tanqisligi haqida o‘ylash mumkin. Xususan, B guruhi vitaminlari teri salomatligida muhim o‘rin tutadi. Lekin yuzdagi toshmalarni faqat vitamin yetishmasligi bilan izohlash ham biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Gormonal o‘zgarishlar, allergiya, noto‘g‘ri parvarish, stress, ovqatlanish xususiyatlari va teri kasalliklari ham bunday holatga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bois teridagi muammoni bartaraf etish uchun vitaminlarni o‘zboshimchalik bilan ko‘p miqdorda qabul qilishdan ko‘ra, avvalo, sababni aniqlash muhim. Shuningdek, bunda ratsionda kartoshka, banan, tuxum, pishloq, karam, qo‘ziqorin va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining bo‘lishi organizmni turli ozuqa moddalari bilan ta’minlashga yordam beradi.

QO‘L VA OYOQLARNING UVUSHISHI

Qo‘l-oyoqlarning uvushishi esa yanada jiddiyroq e’tibor talab qiladi. Ayrim hollarda B_6, B_9 va B_{12} vitaminlari yetishmasligi nerv tizimi faoliyatiga ta’sir qilib, uvushish, sanchish yoki sezuvchanlik o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, B_{12} vitamini tanqisligi uzoq davom etsa, asab tizimi bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi ehtimoli bor.




B guruhi vitaminlarini parranda go‘shti, tuxum, sut mahsulotlari, dukkaklilar, ko‘katlar va donli mahsulotlardan olish mumkin. Folatga boy mahsulotlar ham kundalik taomnomada bo‘lishi kerak. Sitrus mevalar, sabzavotlar va ko‘katlar bu borada yaxshi manba hisoblanadi. Dengiz mahsulotlari ham organizm uchun qimmatli ozuqa moddalarini yetkazib beradi.

MILKLARNING QONASHI

Milklarning qonashi ham e’tibor talab qiladigan belgilardan. Tish tozalayotganda milkdan qon kelishi har doim vitamin tanqisligini anglatmaydi. Ko‘p hollarda bunga og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasiga yetarlicha e’tibor bermaslik, milk yallig‘lanishi, tish toshlari yoki parodont bilan bog‘liq muammolar sabab bo‘ladi. Ayrim ozuqa moddalari, jumladan C va D vitaminlari suyak, tish va milklar salomatligida muhim ahamiyatga ega.

D vitamini organizmda kalsiy va fosfor almashinuvini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. U suyaklar va tishlar mustahkamligi uchun zarur. Yog‘li baliqlar, tuxum sarig‘i va D vitamini bilan boyitilgan mahsulotlar uning manbalari hisoblanadi. Biroq D vitaminini oddiy oziq-ovqat orqali yetarli miqdorda olish har doim ham oson emas. Shu sababli uning tanqisligi gumon qilinsa, shifokor tavsiyasi va zarur hollarda tahlil natijalari asosida yo‘l tutish maqsadga muvofiq.



Tibbiy xizmat podpolkovnigi
Jamoliddin ABDUSAMATOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Harbiy tibbiyot instituti
kafedra boshlig‘i

Boshimning toji – Onam



DASHT–U DALALARNING toza nafasi

Yoshing ulg‘aygani sari hayotga qarashlaring ham o‘zgarar ekan. Avvallari alpkelbatli o‘g‘lonlar ko‘zlarimni quvontirib, hayratimga sabab bo‘lar edi. Yurt himoyachilari ko‘ngilga g‘ururla uyg‘un xotirjamlik solishi tabiiy. Yillar davomida milliy armiyamizning eng oldi yigitlari faoliyati bilan bog‘liq maqolalar tayyorladim.





Elning mardona o‘g‘illari haqida elga xabar berdim. Va shunday bir kun keldiki... Jo‘shib yozgan yozig‘larimni saralar ekanman, qandaydir kamlik borligini sezdim. Oldin nega e’tibor bermadim ekan? O‘zimni oqlamoqchi bo‘ldim-u, baribir inson o‘z-o‘zini alday olmaydi-ku. Baralla elga ovoza qilishim lozim bo‘lgan insonlar haqida deyarli yozmabman, unutibman. Ularsiz hech narsa mukammal bo‘lmasligini bilganim holda unutibman. Mardlik haqida minglagan dostonlar bitmaysanmi, dostoningda ularga joy bo‘lmasa, hayf-da?! Ularsiz yozganlarim ham bir g‘arib, kemtik, ko‘rimsiz ekan...

Ular kim? Ular – Vatan himoyachilarini tug‘ib, tarbiyalab, boqqan ONALAR!

Hozirgi kunlar yurt qo‘riyotgan o‘g‘illarga boshqacha, ona nigohi bilan qarayman. Rost, qarashlarim o‘zgarib ketgani yo‘q. Ammo bir o‘y qo‘shilgan: “Bu arslonni qay bir Ona tarbiyalab, elga qo‘shdi ekan?!”

Bu sahifa o‘ylarimning javobi bo‘lib, o‘sha kemtiklikni to‘ldiradi, degan umiddaman. Shu orqali har doim parda ortida qolib, ora-sira eslanadigan mo‘tabar insonlarni o‘quvchilarimizga tanitamiz.

TEATRDA

– Harbiy xizmatchilar teatr tomoshasiga oilaviy kelishlariga ko‘nikib ketganmiz, – deydi III darajali serjant Akbarjon Ahmedov. – Kuzning ilk kunlarida ham shunday bo‘ldi. G‘ovur-g‘uvur orasida bosh serjant Elyorbek Oqboyevga ko‘zim tushib qoldi. Yonida onasi! Qandaydir ko‘zga yoqimli holat. Ona-bolaga qayta-qayta qaragim kelsa deng. O‘sha kuni mendan boshqalarning ham ularga hurmat, mehr bilan boqqanlarini ko‘rdim. Harbiylar deyarli barchasi ota-onalaridan yiroqda yashashadi. Elyorbekning onasi ko‘ngillardagi sog‘inchni uyg‘otib yuborgandek bo‘ldi. Kimning onasi bo‘lsa ham ona baribir ona-da! Agar onalar haqida yozmoqchi bo‘lsangiz, Elyorbekning onasi Mukarram ayadan boshlay qoling.

Janubiy operativ qo‘mondonlik markaz “press” boshlig‘ining bu taklifi bizga ham ma’qul keldi.

AYA BO‘LMASDAN AVVAL

Bir g‘aroyib zamonlar keldi. Shunday imkoniyatlar borki, bolang xotirasida har qanaqa yoshda ham ko‘rinishing mumkin. Bugunning yoshlarida menda bo‘lgani kabi “onam bilan tushgan rasmim yo‘q”, degan achchiq armon yo‘q. Onalar ham qachondir yosh bo‘lgan. Har bir farzand o‘sha yoshlikni ko‘rgisi keladi. Menda esa onamning bolaligi, yoshligi haqida xira tasavvurdan boshqasi yo‘q.

Mukarram aya ham aya bo‘lmasdan avval orzulari olamjahon qiz bo‘lgan. Suhbatlashayotib bildim. Qashqadaryo viloyati, G‘uzor tumanining Sovlig‘or qishlog‘ida tug‘ilib o‘sdi. Badiiy adabiyotga mehri bo‘lakcha, katta shaharda o‘qish orzusidagi bir qiz.

Hayotda har doim ham biz o‘ylagandek bo‘lavermaydi. U oiladagi to‘qqiz farzanddan biri edi. Maktabni tamomlaganidan so‘ng ota-onasi uni uzatib yubordi. Uzoqqa emas, o‘zlaridan ikki uy narida turadigan Xudoyberdi degan yigitga uzatdi. Yaxshi qiz ovulidan ortmaydi, deganlari shu-da. Yigit esa o‘sha paytlari talaba edi.

Birin-ketin farzandlar tug‘ildi. Eri ham o‘qishni tamomlab, maktabda fizika-matematikadan dars bera boshladi.

MUKARRAM AYANING HIKOYASI

“Siz nima ish qildingiz? Qiyin damlar ham bo‘lgandir?” deya savol berdim-u, o‘z-o‘zimdan uyaldim. Beshta farzand tug‘ib, tarbiyalab, elga qo‘shgan ayolga beriladigan savolmi shu? Keling, shunaqa chuchmal savollar bermay, opaning o‘zidan eshitaylik.

– Nima ish qilar edim? Dalada ishlaganman, paxta dalasida, sahardan to shomga qadar. Kelinlik vazifalarimni bajarganman. Qari qaynona-qaynotam bor edi. Ularni parvarishlashga o‘zimni burchli bilganman. Tong g‘ira-shirasida turib, kunduzi och o‘tirishmasin, quvvat bo‘lsin deya, yupqa, g‘ilmindi pishirib qo‘yar edim. Nonni ham tongda yopardim. Bolalarning kir-chiri, osh-ovqati... Erim imkon qadar yumushlarimni yengillatishga urinar edi. Maktabning ishi ham oson emas edi-da.

Qiyinchiliklar oldinda ekan. To‘qsoninchi yillar oziq-ovqatlar, ayniqsa un tortilib qoldi. Yeyman-ichaman deb turgan bolalar... G‘allasi o‘rib olingan maydonlardan mashoq terdim. Bu o‘ta mashaqqatli ish. Kun davomida bosh ko‘tarmay tersang ham qoping to‘lmaydi.

Ha, shunday kunlar o‘tdi. Nolimayman. Ko‘pga kelgan to‘y edi. Bugun non serob, o‘tkan kunlardan gapirsang, ertakka o‘xshaydi.

ELYOR

– Tug‘ilib o‘sgan joylarim dala-dashtlardan iborat. Onamning umri, umrining eng yaxshi yillari ana shu dala-dashtlarda mehnat bilan o‘tdi. Dasht shamollaridan qoraygan yuzlari, og‘ir mehnatdan qavargan qo‘llari... Uni hech qachon yasan-tusan qilib, to‘ylab yurganini ko‘rgan emasman. Dala ishlari o‘ta og‘ir. Ertadan kechgacha ishlab, kechqurun uyga kelganida qozon osib ovqat qilardi. Uch o‘g‘il yeb to‘ymaydigan yoshda edik. Ko‘nglimizga qarardi. Kech qorong‘isida somsa yopardi, yupqa pishirib berardi. Kir yuvardi.

Bilasizmi, bola bo‘lib, yigit bo‘lib, onamning uxlaganini ko‘rmabman! Doim bedor, doim mehnat bilan band ko‘rdim.

Sho‘x, to‘polonchi bola bo‘lganman, biror marta qattiq gapirib, tanbeh bermagan. Harbiy ekanimdan g‘ururlanib yurishini bilaman. Yozda biznikiga kelmoqchi edi. Kasallanib qoldi. Bolalarim momosini sog‘inib intiq bo‘lavergach, yoz oxirlaganida qiyolmay keldi. Endi sog‘lig‘i avvalgidek emas, afsus... Tez charchaydi. Istaklari ham oddiy. Bozor aylanishni yoqtiradi. Ikki kun ona-bola Termiz bozorlarini aylandik. Charchab qoldi, ammo xursand bo‘ldi. “Chegarachi” spektakliga birga tushdik. Uyga kelib, bolalarimga aytib berdi, ular ham jon qulog‘i bilan onamni eshitib o‘tiribdi. Onam kelsa, uyim yanayam fayzli bo‘lib ketadi. Bolalarimning sevinishini ko‘rsangiz.

Qani edi, imkonim bo‘lsa, onamga ko‘rmagan joylarini ko‘rsatsam. Umri mehnat, bolalar tashvishi bilan kechdi. Endi rohat-farog‘atda yashasin. Ko‘nglida pinhona bir orzusi bor, sezaman. Haj ziyorati haqida so‘z ketsa, ko‘zlarida soddagina orzumandlik paydo bo‘ladi.

O‘G‘ILLARNING “ARZANDASI”

Mukarram aya bolalarining ismini bir-bir ayta boshladi: Maqsuda, Elbek, Elyor, Nurbekjon, Sohibjamol. Bunday chiroyli ismlarni kim qo‘ygan, deb so‘radim:

– Maqsudaning ismini momosi qo‘ygan, qolganlarining ismini otasi qo‘ydi.

– Opa, bolalaringizni hammasi unib-o‘sgan, o‘zlaridan ko‘paygan. Armoningiz yo‘qdir, a? – deya so‘radim.

– Shukr, bolalarimdan ko‘nglim to‘q. Elbegim ulg‘ayib yonimizga kirganida juda sevinganman. Hozir alohida chiqib ketgan. Ishdan qaytayotib qo‘lida bir tugun bilan bizni yo‘qlab, keyin uyiga ketadi. Uyimiz uning yo‘li ustida. Elyorim... armiyaga ketgan kezlari sog‘inchdan kun sanab bolamni kutdim. Harbiy qasamyod qabul qilgan qutlug‘ kunlarida yonida bo‘lolmadim. Xabarlashish mushkul edi. Shu yo‘lni tanladi, kam bo‘lmadi. Nurbegim bilan yashaymiz. Dugonalarimning menga havasi keladi, “O‘g‘illari arzanda qiladi *(aziz, ardoqlab yuradi ma’nosida)*, yaxshi tarbiya bergan ekan” deb. O‘n to‘qqiz nevaram bor! Orasida bobolari kabi matematiklari bor. Bobosi o‘zi shug‘ullangan-da. O‘ttiz besh yil maktabda umri o‘tgan odamning nevaralari bobosidan o‘zishi kerak. Armon... Oliy dargohlarda o‘zim o‘qiy olmadim, qizlarim o‘qisa, derdim. Nasib etmadi. Shukr, birovdan kam emas, fermerlik qiladi. Shunday bo‘lsa ham o‘qiganlarida edi, deb o‘ylab qolaman.

***

Azizlar, mana, bir ona haqida sizga xabar berdik. Sabrli, mehnatkash, fidokor, mo‘tabar bir ayol! Unutmang, hamma narsa tiriklikka yarashadi. Onalar hayotligida e’zozlang, ularga go‘zal amallaringiz bilan sevgingizni ko‘rsating. Boshimning tojisiz, deya ardoqlang.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Reklama huquqi asosida

REKLAMA

FAOLIYAT QAMROVI KENGAYMOQDA





Texnika zamonida haydovchilikni o‘rganishga ishtiyoqmand kishilar tobora ko‘payib boraverishi shubhasiz. Zero avtomobil nafaqat hasham, ziynat belgisi, balki zamonaviy harakat vositasi hamdir. Mashinani mohirona, bemalol boshqarishni kim istamaydi, deysiz?! Binobarin, avtomobil haydashni ko‘ngildagidek o‘rganish, yo‘l harakati qoidalarini a’lo darajada bilish uchun munosib ta’lim bera olishga qodir dargohni tanlashga intilishimiz tabiiy.

Namanganliklar uchun avtomobil haydashni o‘rganish muammo emas. Zero Namangan avtomobil o‘quv ishlab chiqarish kombinati mas’uliyati cheklangan jamiyati viloyatdagi eng nufuzli o‘quv maskanlaridan biri hisoblanadi. Mazkur dargoh asosan, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun mutaxassis haydovchilar tayyorlashga ixtisoslashgan.

Bugungi kunda tashkilot avtomobil maktablarida malakali haydovchilar tayyorlash uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Namangan shahri va viloyatining deyarli barcha tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan ushbu muassasa avtomaktablarida “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Shuningdek, o‘ttiz soatlik malaka oshirish o‘quv dasturi bo‘yicha haydovchilar malakasini oshirish va amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalar *(instruktorlar)* tayyorlash kurslari ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bu o‘ta muhim jarayonni bajarish uchun tashkilot jamoasi tarkibida katta tajribaga ega, bilimdon, o‘z ishining mohir o‘qituvchilari hamda amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalar yetarlicha. Albatta, o‘z kasbining haqiqiy bilimdonlari bo‘lgan ustozlardan ta’lim-tarbiya olgan shogirdlarning bilimi, malakasi yuqori bo‘ladi.

Texnik va texnologik jihatdan mukammal darajada ta’minlangan ushbu dargoh mutaxassislari o‘zlarining yangicha uslubda, yo‘l harakati qoidalari va boshqarish amaliyotini yaxshi biladigan haydovchilar tayyorlashni maqsad qilib qo‘ygan. Bu borada joriy qilingan ta’lim va axborot texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan dasturlarning ahamiyati katta bo‘lmoqda.

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi asta-sekin o‘z natijasini bermoqda. Endilikda har sohada o‘zgarishlarning natijasi ko‘rinayotgani, tabiiyki, har birimizni quvontiradi. Yanada unumli mehnat qilishga, izlanishga chorlaydi.

Bizning tashkilotimizni ham tom ma’noda islohotlar mevasi deyishimiz mumkin. Zotan, mamlakatimizda Yurtboshimiz tashabbuslari bilan erkin mehnat, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Mazkur korxonani tashkil etish natijasida yuz nafardan ziyod hamyurtimiz doimiy ish o‘rni bilan ta’minlandi. Muhimi, haydovchilik sir-asrorlarini o‘rganmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Avtomaktablarimizda tinglovchilarga zarur qulayliklar yaratilib, zamonaviy talablarni o‘zida mujassam etgan sinfxonalar, avtodrom hamda turli rusumdagi o‘quv avtomobillari taqdim etilgan.

Haydovchilik kasbini egallashni xohlovchilarning uzog‘ini yaqin qilish maqsadida viloyatimizning bir qancha tumanlarida filiallari faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan.

Akramjon RAHIMOV,
Namangan avtomobil o‘quv ishlab chiqarish kombinati MChJ direktori

YOSHLAR BARKAMOLLIGI YO‘LIDA



Harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, ommaviy kasbdagi xodimlarni tayyorlash borasida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi Jizzax shahri o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.



Tashkilot a’zolari amaldagi yilning o‘tgan oylari mobaynida haydovchilar tayyorlash borasida yaxshi samaradorlikka erishdi. Belgilangan dastur asosida “A”, “B”, “BC”, “D” toifalariga nomzodlar o‘qitilib, bu boradagi rejaning to‘liq bajarishiga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa o‘z-o‘zidan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash jarayoni yuqori saviyada tashkillashtirilayotganining hamda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligida sohaga o‘ziga xos uslubda yondashayotganining natijasidir.

– Ayni paytda tashkilotimizda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilyapti, – deydi markaz direktori O‘ktam Abdusalihov. – Shu tufayli yoshlar o‘rtasida sport musobaqalarini o‘tkazish muntazam yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, avtokross sport turi bo‘yicha o‘tkazilayotgan O‘zbekiston kubogi musobaqalarida jizzaxlik avtosportchilar faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Masalan, shu yilning 14–15-mart kunlari avtokross sport turi bo‘yicha O‘zbekiston kubogining ikkinchi bosqich musobaqasida umumjamoa hisobida sportchilarimiz faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ayni paytda markazda havo miltig‘idan o‘q otish, avtosport, motokross kabi sportning muhim turlaridan seksiyalar faoliyat ko‘rsatmoqda.



Ma’lumki, yoshlar qalbiga Vatanga muhabbat hissini singdirishda ko‘pni ko‘rgan keksa avlodning hikoyalari, o‘gitlari katta ahamiyatga ega. Shu bois ham reja asosida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat faxriylari, turli soha vakillari ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazish ham an’anaga aylangan.

Birgina O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlab “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ana shunday ishlar sirasidandir.

Shu kunlarda mazkur markazda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Shu tufayli ham sport tadbirlari muntazam tashkil etilmoqda. Chunki tashkilot jamoasi nafaqat malakali haydovchilar tayyorlashni, balki har jihatdan yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalashni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

UZVIY HAMKORLIK NATIJASI

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Mirzaobod tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida samarali natijalarga erishmoqda.









Xususan, mushtarak maqsadlar mezoni sifatida markaz jamoasi tumandagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

– Bugun mamlakatimizda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga har qachongidan-da katta e’tibor qaratib kelinmoqda, – deydi markaz direktori To‘xtasin Shodmonqulov. – Shu bois ham turli mavzularda ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari tashkil etilmoqda. Shu maqsadda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Mavjud “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon”, “Triatlon” kabi seksiyalarda o‘ttiz nafardan ziyod yosh muntazam shug‘ullanmoqda.





Sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish rejasiga asosan, tuman miqyosida yoshlar ishtirokida bir necha bor sport musobaqalari tashkil etildi. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan musobaqalarda mingdan ortiq o‘quvchi-yosh ishtirok etdi. Shuningdek, tashkilotga a’zo sportchi yoshlar viloyat va respublika musobaqalarida ham faol qatnashib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritayotgani quvonarli holdir.

Tashkilotda ayni paytda “B”, “BC” toifali haydovchilar hamda traktorchilar tayyorlanmoqda. Bunda mavjud moddiy-texnik baza, avtomobillar parki, o‘quv xonalari, zamonaviy o‘quv avtomobillari barchasi uyg‘unlikda malakali haydovchilar tayyorlash imkonini bermoqda. Albatta, erishilayotgan muvaffaqiyatlarda jamoa a’zolarining zamon talablari darajasidagi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Bugunning gapi

IJTIMOIY “QARMOQ”LAR

Dunyo tezlashib ketganga o‘xshaydi. Qayerga qaramay, yugurib ketayotgan olomonga ko‘zim tushadi. Avtobus, metro, taksi, yo‘lni qisqartirish bilan birgalikda umrning ham qaysidir qismlarini o‘ziniki qilib olganga o‘xshaydi. Bundan ming yillar muqaddam olimlar hamma narsani unutgandek go‘yo. Bir ma’lumot, yoki kitob axtarib yillarini yo‘qotgan bo‘lsa-da, topganlari yo‘qotganlari oldida anchayin ulkanroqdir. Bugun birgina telefon orqali istagan ma’lumotingizni olishingiz, vaqtingizni tejashingiz mumkin, lekin shu birgina telefon butun boshli umrimizni puchga ham chiqarmog‘i mumkin.



Kecha ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘tkazilayotgan so‘rovnomadagi qiziq bir holatga ko‘zim tushib qoldi. Boshlovchi yigit o‘tib ketayotgan odamlarni telefonini so‘rab, Instagram tarmog‘ida necha daqiqa o‘tirishini, ya’ni shu tarmog‘ga bir kunda qancha vaqt sarflashini so‘rayapti. Hisob-kitob natijalari esa judayam hayratlanarli va qo‘rqinchli. Har bir odamning o‘rtacha olti, yetti soati, ba’zilarning esa to‘qqiz-o‘n soatgacha umrini egallayotganini ko‘rib hayron qoldim. O‘zimni kitobxon, ijtimoiy tarmoqlardan uzoqda yashaydigan odam deb bilaman. Ammo mening ham bir kunda bir-ikki soatim shu tarmoqlarda befoyda sarf bo‘lib ketar ekan.

SOXTA BAXT ORTIDAGI HAYOT

Bundan bir necha yillar ilgari maktabimizga bir ko‘zboylog‘ich kelib, butun bolalarni aldab ketgani hech yodimdan chiqmaydi. Qo‘lidagi kichik sharchasini yangidan, sekin kaftiga oladida sizni tomog‘ingizni bug‘adi. O‘sha payt beixtiyor ko‘zingiz yumilib, shar go‘yo sizning og‘zingizdan sug‘urib olingandek bo‘ladi. Bu hodisani hamma bola notabiiy ekanini bilsa-da, ko‘nglida ikkilanish paydo bo‘ladi. Rostan ham og‘zimdan oldimikan degan.

Bu hodisaga hech kim iddao qilmagan, “Sen bizni aldayapsan” deb. Bugun bu ko‘zbo‘yamachilik ijtimoiy tarmoqlarga ko‘chgandek. Bir qarashda baxtiyor ko‘rinayotgan odamlar, aslida sizdan va boshqalardan baxtsizroq ekanini bilmaysiz. Har kuni qaysidir dengiz bo‘yida sayr-sayohat etayotgan odamlar, har kuni quchog‘ini to‘ldirib, gullar qabul qilayotgan ayollar, mashina rusumini kunda almashtirib turadigan blogerlar va hokazo.

Aslini olganda, hech nima biz ko‘rgandek emas. Ammo bu hayot orzumandlari ko‘chaga chiqib, bitta daraxt o‘tqazmay, umuman olganda, biror ishning boshini tutmay, umrini ado qilayotganga o‘xshaydi. O‘zimni hayotimdan bir misol keltiray. Ayolim har ikki kunning birida bizga tanish bo‘lgan bir qizning postlarini menga ulashib turadi. Oilasi bilan qilayotgan turli xil trendlari, baxtli hayoti va hokazo. Xullas, “Meni undan nimam kam, siz meni yoqtirmaysiz” degan iddaolar ham bo‘lgan o‘rtada.

Kuni kecha yana bir tanishimizdan anavi baxtiyor qizning achchiq hayoti haqida suhbat ochilib qoldi. Muntazam tahqirlashlar, oilaviy urushlar, zo‘ravonlik va tushunmovchiliklar ichida yashayotgan qiz haqida eshitib, ayolimning og‘zi ochilib qoldi. Tunning yarmida uyidan haydalgan, Toshkentday katta shaharda yolg‘iz qayerga borishini bilmay qolgan qizning ijtimoiy tarmoq sahifalariga ko‘z tashlasangiz, ular butun umr bir-birlari bilan sen-menga bormasa kerak, deb o‘ylaysiz. Ayolimning nigohi yerga qarab qoldi. “Shunaqayam bo‘lishi mumkinmi?” “Albatta”, deyman, – bu zamonda nimalar bo‘lishi mumkin emas”.

IJTIMOIY TARMOQ “TILANCHILARI”

Zamon o‘zgardi, avvalgi eski usulda qurilgan uylar yangilandi, fikrlar keng, xullas hamma yo‘nalishda yangi-yangi islohotlar yuz ochmoqda. “Hamma yangi ko‘ylak kiysa-yu, men eski to‘nimda qolib ketmayman-ku”, degan bizning qadrdon “tilanchilar” ham bugun o‘zgacha ko‘rinishda. Endi sizni eshigingizni chertib, burda noningizga ko‘z tutadigan lo‘lilar va gadoylar bugun mardona turib, pulingizga qo‘shib, teringizni ham shilib olishadi. Qanday deysizmi? Juda ham oddiy, yana o‘sha ijtimoiy tarmoqlar orqali. Bir kun avval uyi yonib ketgan qiz ertasiga o‘zining yangi avtomobilini xarid qilib turadi. Butun ijodini yarim-yalong‘och, fahsh videolar olishga bag‘ishlagan bloger ota-onasini Umra safariga yuborish uchun obunachilardan yordam so‘raydi va hokazo.

So‘z isboti bilan degandek, yuqorida ham ta’kidlaganim kabi yana bir voqea bilan sizlarga yuzlanmoqchiman.

Menga tanish bo‘lgan bir yaqinimning ko‘z o‘ngimda qilayotgan amallaridan hayratga tushganimdan, u bilan aloqani butunlay uzib tashladim. Yuzi, qosh-ko‘zi dunyoning barcha qiyinchiliklarini ko‘rgan odam suratini beradigan bu odam o‘zini bechorahol ko‘rsatib, kun ko‘rish yo‘lini topib oldi. Yana adolatpesha va haqiqatparvar. Qahramonimiz ayni yigit yoshida tekin shuhrat va uning ortidan keladigan mo‘maygina daromadga o‘rganib qoldi, shekilli, ko‘rpasidan boshini ham chiqarmay, bizga aql o‘rgatishga tushib ketdi. Qachon ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzu trendga chiqadi-yu men shunga munosabat bildirsam, deb kutib yurgan bu odamning xokisorligi shu darajadaki, cho‘ntagingizdagi so‘nggi chaqani ham qanday berib qo‘yganingizni bilmaysiz. Uni mashinaga o‘tqazib uyiga jo‘natib, o‘zingiz piyoda uyga qanday qaytganingizni anglamay qolasiz.

Xullas, gapirsa gap ko‘p, dunyo juda tezlashib boryapti. Odamlar haddan tashqari aqlli bo‘lib ketganidan har narsaning yo‘lini topadi. Hozir mana shu maqolam tagiga ijodkorni qo‘llang, donat uchun karta raqam qoldiraman deb yozib ketsam, menga ham ishonadigan odam topiladi.

Maqolada aytilgan maqsadni xulosa qilib aytganda, deb tugatishim kerak. So‘zimni shu joyda muxtasar qilib, hammani ogohlikka chaqirmoqchiman. Umringizni bo‘lmag‘ur narsalardan himoya qiling, ko‘zingizni ochib, atrofga qarang. O‘zingiz bilan yolg‘iz qolib, har kuningizni taftish qiling. Yashashga ulgurib qoling, birodar. Hamma narsani odam o‘ylab topgan, uni boshqaruvchisi ham odam. Har qanday narsa bo‘lmasin, bu dunyo odamning ehtiyoji uchun yaratilgan. O‘zingiz yaratgan narsaning quliga aylanib qolmang. Ijtimoiy tarmoqlarning qarmog‘iga tushmang, yuqorida ta’kidlab o‘tgan odamlarning yolg‘onlariga ishonib qolmang deyman-da, qarindosh.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: kapitan Shohrux Saidov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev
Musahhih: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-6195
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 143 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT hamkorlikda “O‘zbekiston” NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya